



O'zbekiston Respublikasi  
Ichki ishlar vazirligi nashri

Vatanga va xalqqa sadoqat bilan xizmat qilish – oliy burchimiz!

# Postda На посту

2024-yil  
26-dekabr  
payshanba  
№ 52 (4694)

Gazeta 1930-yil 12-maydan chiqq boshlagan / Web-site: www.postda.uz / E-mail: info@postda.uz

К  
Е  
С  
Н  
А  
-  
К  
У  
Н  
Д  
У  
З  
  
Х  
И  
З  
М  
А  
Т  
Д  
А



«Toshkent shimoliy» vokzali bugun nafaqat shahar me'morchiligining ajoyib namunasi, balki ijtimoiy infratuzilmaning ajralmas bir qismiga aylangan.

Vokzalda hozirgi paytda mahalliy yo'nalishda «Toshkent–Andijon», «Toshkent–Samarqand», «Toshkent–Buxoro», «Toshkent–Qarshi», «Toshkent–Urganch», xalqaro yo'nalishda esa «Toshkent–Moskva», «Toshkent–Samarqand», «Toshkent–Novosibirsk», «Toshkent–Volograd», «Toshkent–Dushanbe», «Toshkent–Almati» yo'lovchi poyezdlariga xizmat ko'rsatilmoqda.

– Yo'lovchilar o'z manzillariga xavfsiz va bexavotir yetib borishi uchun ularga kerakli barcha qulayliklar yaratib berilmoqda. Xuddi shunday, xorijlik mehmonlar xavfsizligini ta'minlash yo'lida xodimlarimiz kecha-kunduz mas'uliyat bilan xizmat olib borishyapti, – deydi Toshkent mintaqasi temiryo'l transportida xavfsizlikni ta'minlash boshqarmasi PPX otryadi komandiri, podpolkovnik Fazliddin Umarov.

Xalqaro standartlarga to'la mos keladigan vokzalda har kuni o'rtacha 3500–4000 yo'lovchiga yuqori darajada xizmat ko'rsatiladi. Hududga o'nlab videokuzatuv kameralari o'rnatilgan. Bu ham, o'z navbatida, vokzal hududida xavfsizlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'z muxbirimiz.



## ЎЗБЕК ОФТАЛЬМОЛОГИЯСИ ЭНЦИКЛОПЕДИСТИ

Кўз – инсоннинг кўрувчи жуфт сезги органи ҳисобланади. Унинг ишлаши ёруғликнинг миқдори билан чамбарчас боғлиқ. Бинобарин, кўриш одамнинг ички дунёсини бойитади, фикрлаш қобилияти, ақл-идроки, онгини ривожлантиради. Аммо ҳозирги кунда ҳар учинчи инсон кўриш қобилияти муаммоларидан азият чекмоқда. Уларни даволаш, ҳаёт қувончини қайтариш эса чинакам қаҳрамонликдир.

Бугунги суҳбатдошимиз – Ўзбекистон Қаҳрамони, «Меҳнат шухрати» ордени соҳиби, Тиббиёт ходимларининг касбий малакасини ривожлантириш маркази офтальмология кафедраси мудирини, ИИВ Тиббиёт бошқармаси Марказий поликлиникасининг кўз касалликлари ихтисослиги бўйича илмий маслаҳатчиси, тиббиёт фанлари доктори, профессор Холидjon Комилов.

(Давоми 2-бетда.)



ЗАМОНАМИЗ ҚАҲРАМОНИ

## ЎЗБЕК

ОФТАЛЬМОЛОГИЯСИ  
ЭНЦИКЛОПЕДИСТИ(Давоми. Бошланғичи  
1-бетда.)

## – Болалик даврингиз қандай ўтган?

– 1944 йил 22 декабрь куни Тошкентда, етти ойлик туғилган эканман. Оғир кунлар, очарчилик пайти бўлган. Қийин шароитларда бувим телпакка солиб боққан. Яшаб кетадими-йўқми, деб иккиланган. Шундан сўнг гувоҳнома олишган. Шу боис туғилган куним 1945 йил 5 январь, деб ёзилган. Оилада катта фарзанд бўлганман. Бир синглим бор. Болалигимда тиниб-тинчимас, жуда шўх бола эдим. Онама мактабда ўқитувчи эди. Уй юмушларидан ортиб, кечаси билан бизга дарс қилдирарди. Мактабда олган билимим билан қийинчиликсиз ўқишга кирганман.

## – Ёшлигингиздан ота касбига қизиққан экансиз...


– Халқимизда ота касбини ардоқлаган барака топади, деган нақл бор. Шифокорлик касбини эгаллаш орзуси мактабда ўқиб юрганамдаёқ пайдо бўлган, чунки кўз олдимда муносиб намуна бор эди. Отам Маҳмадjon Комилов – ҳамма танийдиган шифокор, ҳарбий врач бўлган. Иккинчи жаҳон уруши иштирокчиси бўлган. Тошкент врачлар малакасини ошириш институти кўз касалликлари кафедраси мудири, Ўзбекистон фан арбоби, Республикада хизмат кўрсатган врач, тиббиёт фанлари доктори, профессор, «Жасорат» медали соҳиби эди.

Доимо ҳаётини ўғит ва маслаҳатлар берарди: «Эрталаб уйғондингми, дарҳол ўрнингдан тур!», «Ўқишга, ишга вақтли бор, мўлжалланган ишни битиргандан сўнггина уйга қайт!», «Кимга нима гапиришни ўйлаб, билиб гапир!», «Бошлаган ишингни ҳаммиша охирига етказ!», «Профессор ўғли бўлма, профессор бўл!»

## – Республикада офтальмология соҳасида амалга оширилган энг муҳим ишлар ҳақида гапирсангиз.

– Халқ орасида кенг тарқалган «трахома-шилпиқ» деган касаллик

1964 йилга келиб батамом тугатилди. Бу бизнинг энг катта ютуғимиз бўлди. 1972 йилда биринчи бўлиб лазер нурлари тиббиётда офтальмологияда қўлланилган. 1975–1980 йилларда кўз микрожарроҳлиги усули кириб келди. Кўзнинг хиралашган табиий гавҳари ўрнига сунъий гавҳар қўйишни амалга оширдик.



Фақат шу амалиётлар билан чегараланиб қолмадик. Жарроҳликда ультратовуш ва лазер нурларидан фойдалана бошладик. 90-йиллардаги катта ютуғимиз – компьютер томографияси бўлди. Ундан сўнг МРТ, МСКТ, ОКТ кириб келди. Натижада кўздаги жуда майда ўзгаришларни ҳам аниқлаш имкони пайдо бўлди. Ҳозирги кунда кафедрамиз барча керакли ускуналар ва техник жиҳозлар билан таъминланган.

## – Кўз касалликларининг асосий сабаблари ва унга чалинмаслик учун нималарга эътибор бериш лозим?

– Кўзнинг олдинги шиллик пардаси жуда нозик бўлади. Ташқи муҳит таъсирида тез зарарланиб, шамоллаш, яллиғланиш касалликлари пайдо бўлади. Кейинги сабаб кўз жароҳатлари, яъни эҳтиётсизлик оқибатида кўз шикастланади. Кўзнинг ички тузилишида ҳам ўзгаришлар бор. Ундан сўнг тана билан боғлиқ сабаблар. Хафақон, қандли диабет, ревматизм, захм, асаб касалликлари ҳам кўз саломатлигига ўзининг салбий таъсирини кўрсатади. Бундан ташқари, наслга, ёшга, жинсга боғлиқ бўлганлари ҳам, боғлиқ бўлмаганлари ҳам мавжуд. Мисол учун, миопия ёки гла-

укомада наслий омил муҳим аҳамиятга эга. Инфекцион кўз касалликларининг эса наслга боғлиқлик жойи йўқ.

Йилига бир марта тиббий текширувдан ўтиб туриш керак. Наслида кўз касалликлари мавжуд бўлган инсонлар эса 35 ёшдан сўнг йилига 2 маротаба кўзларини текширтириб туриши талаб этилади. Шундагина касал-

ликларни эрта аниқлаш ва самарали даволаш мумкин. Кўриш ўткирлиги пасайишини кутмасдан ўз соғлигингизга ёшликдан эътиборли бўлишингизни тавсия қиламиз.

## – Маълумки, компьютерда кўп ишлаш кўзлар учун жуда зарарли. Унинг зарарли оқибатларини камайтириш учун нима қилиш лозим?



– Компьютердан узоқ ва давомли фойдаланиш натижасида «компьютерли синдром» юзага келади. Кўзларимизни ҳар дақиқада 12 маротаба юмиб-очишимиз керак. Компьютерда ишлаганда эса 1 дақиқада 5–6 марта юмиб-очамиз. Натижада кўз намлиги камайиб

## МАЪЛУМОТ ЎРНИДА

Холидjon Комилов 1968 йили Тошкент давлат медицина институтини тамомлаган. 1970–1972 йилларда Москвадаги П. Бурденко номидаги нейрохирургия илмий-текшириш институтида номзодлик диссертациясини тайёрлаб, Гельмгольц номидаги Москва кўз касалликлари илмий-текшириш институтида муваффақиятли ҳамма қилган. 1972 йилда тиббиёт фанлари номзоди, 1988 йилда фан доктори илмий даражасига сазовор бўлган. 2015–2019 йилларда Олий Мажлис Сенати аъзоси. 800 дан ортиқ илмий ишлар, жумладан, 8 та монография, 10 та патент, 10 та муаллифлик гувоҳномаси ва 38 та услубий қўлланма муаллифи ҳамдир. Унинг илмий раҳбарлиги остида 8 нафар фан доктори ва 39 нафар фан номзоди тайёрланган.

боради. Кондиционер ҳавони қуритади ва бу синдром кўзларда чарчоқ, қизариш, кум қадалгандек ҳиссиёт, қуруқлик ва санчик, кўриш қобилиятининг хиралашуви, қичишиш, бош ва бўйинда оғриқ, иш куни якунидаги чарчоқ каби белгилар билан намоён бўлади. Телефон ва планшетлардан кўзга яқин масофада доимий фойдаланиш кўз нурига салбий таъсир кўрсатади. Компьютерда ишлаганда кўзларни тез-тез дам олдириб, тоза ҳавога чиқиб туриш лозим.

## – Ички ишлар органларида ходимлар ва уларнинг оила аъзолари, фахрийлар саломатлигини сақлашда ўз маслаҳатларингизни бериб келмоқдасиз. Кўз саломатлигини сақлашда яна қандай тавсиялар берасиз?

– Соғлом турмуш тарзига қатъий риоя қилиш керак. Ҳамма нарсада – ишда ҳам, ўқишда ҳам меъёр яхши. Овқатланишда ҳам эътиборли бўлишимиз лозим. Инсон

тановул қилиш кўриш қобилиятини оширади, чарчоқнинг олдини олади ва оғриқни камайтиради. Кўриш равшанлигини оширишга туртки бўлувчилар қаторида кўкатлар алоҳида ўринга эга. Кўкат таркиби фойдали микроэлементлар, витаминларга тўйинганлиги сабабли ёшлик ва тўлақонли кўриш қобилиятини узоқ йиллар сақлаб қолишга кўмаклашади.

## – Сизнинг қутлуғ 80 ёшингиз билан таҳририятимиз ходимлари ҳам самимий муборакбод этади.

– Кунини кеча муассасамизда ҳамкасбларим ва шогирдларим билан таваллуд айёмимни нишонладик. Аввало, табарруқ ёшга етганимга шукр. Ички ишлар вазирлигининг «Ички ишлар органларига кўмаги учун» кўкрак нишони билан тақдирландим. Кексайганда меҳнатинг гаштини суриш бошқача бўларкан – ғайратим янада жўш уриб кетди. Инсонни меҳнат улуғлайди, деганлари шу-да. Шу ёшда ҳам халққа хизмат қилаётганимдан беҳад мамнунман. Кўпинча мендан тақдирингиздан розимисиз, деб сўрашади. Ҳа, албатта, мингдан-минг розиман, дейман. Олим бўлдим, Ўзбекистон Қаҳрамони унвонига сазовор бўлдим. Инсонлар кўзига нур улашдим. Буларнинг ҳаммаси катта бахт. Ҳар кунини тану жоним соғ бўлиб, бор билимларимни шогирдларимга улашиш истаги билан уйғонаман...

## – Юрт тинчлиги йўлида хизмат бурчини адо этаётган ички ишлар ходимларига тилақларингиз...

– Тинч ва осуда, фаровон ҳаёт кечиршимизда хизмат қилаётган осойишталик посбонлари халқ тинчлигини сақлашда ҳеч қачон толманг! Зеро, тинч юртда тараққиёт бўлади.

Сухбатдош:  
Мадина ҚАҲҲОРОВА.



ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

## «FARG'ONA TAJRIBASI»NI O'RGANIB

Farg'ona viloyati IIBda «Axborot texnologiyalari yordamida sodir etilayotgan firibgarlik va o'g'irlik jinoyatlariga qarshi kurashish: muammo va yechimlar» mavzusida ilmiy-amaliy konferensiya tashkil etildi.



Anjumanda viloyat IIB boshlig'i, harbiy fanlar bo'yicha falsafa doktori, general-mayor Azizbek Ikra-

mov hamda Ichki ishlar vaziri o'rinbosari – Tergov departamenti boshlig'i, polkovnik Ramazon Ashropovlar axborot

texnologiyalari yordamida sodir etilayotgan firibgarlik va o'g'irlik jinoyatlariga qarshi kurashish bugunning eng

dolzarb masalasi ekanligini ta'kidlashdi.

Shundan so'ng mavzuga oid dolzarb ma'ruzalar tinglandi. Muhim mavzudagi ma'ruzalar ishtirokchilarning qiziqishi va muhokamalariga sabab bo'ldi.

– Bugungi kunda axborot tizimidan foydalanib sodir etilayotgan jinoyatlarni na-faqat tergov qilish, balki ularning profilaktikasi ham dolzarb ahamiyatga ega, – deydi Sirdaryo viloyati IIB huzuridagi Tergov boshqarmasi boshlig'i, podpolkovnik Shahboz Ne'matjonov. – Bugungi anjumanda ayni turdagi jinoyatlarning oldini olishda mahalla yettiligining rolini oshirish borasida aniq takliflar o'rtaga tashlandi. Bu borada «Farg'ona tajribasi» ham bizda ijobiy taassurot qoldirdi.

Konferensiya qatnashchilari, viloyat IIB huzuridagi Tergov boshqarmasida yaratilgan imkoniyatlar, IIB situatsion markazi, 3-sektor shtabi, kutubxona hamda Axborot xizmati qoshidagi

media markazi bilan yaqindan tanishishdi.

Shundan so'ng viloyat IIB hamda TATU Farg'ona filiali hamkorligida tashkil etilgan Kiberxavfsizlik laboratoriyasida ham bo'lgan ishtirokchilar bu yerda o'rnatilgan jihozlar, texnik imkoniyatlar, viloyat IIB malakali mutaxassislarning TATU Farg'ona filiali talabalarini bilan amaliy hamkorligiga yuqori baho berishdi.

– Kiberjinoyatlarga qarshi kurashishda yangicha usullarni amaliyotga joriy etish vaqti keldi, – deydi Farg'ona tumani IIB huzuridagi Tergov bo'limi boshlig'i, mayor Sardor Nurmatov. – Anjumanda aynan shu yo'nalishda jahon tajribasi haqida so'z yuritildi, respublikamizning malakali mutaxassislari tomonidan muhim tavsiyalar, fikrlar o'rtaga tashlandi. Ulardan o'zimizga zarur ma'lumot va bilimlarni olishga muvaffaq bo'ldik.

**Abduvosit SIDIQOV,**  
o'z muxbirimiz.

Farg'ona viloyati.

### TANLOV G'OLIBI

Joriy yilda ichki ishlar organlarida o'tkazilgan «Eng yaxshi kutubxona» ko'rik-tanlovining respublika bosqichi g'olibi – Navoiy viloyati IIB axborot-resurs markazi.



AYOL VA JAMIYAT

## «MEN BAXTLI AYOLMAN»

Joriy yilning sentabr oyida Qoraqalpog'iston Respublikasi IIV JXX HPB Xotin-qizlar masalalari bo'limi tashabbusi bilan «Men baxtli ayolman» loyihasiga start berilgan edi. Loyiha Xotin-qizlar tadbirkorlik markazi va «Go'zal hayot» markazi bilan hamkorlikda tashkil etilib, 3 oy davomida tuman va shaharlardagi 18 yoshdan 35 yoshgacha bo'lgan qiyin vaziyatga tushib qolgan, tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlangan ayollar taklif etildi.



Bundan ko'zlangan maqsad – xotin-qizlarni ijtimoiy foydali mehnatga jalb etish, kasbga yo'naltirish, tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yishda amaliy yordam ko'rsatishdan iborat. Loyiha davomida ishtirokchilar o'zlari qiziqqan yo'nalishlar bo'yicha kasb-hunarga o'qitildi, shuningdek, ularni ruhlantiruvchi psixologik darslar tashkil etildi. Bundan tashqari, hudud-dagi turli tarixiy obidalar va muzeylarga sayohatlar uyushtirilib, ularning ma'naviy va ma'rifiy dunyoqarashi yanada oshirildi.

– Kasbiy tajribamdan kelib chiqib ayta olamanki, xotin-qizlarning aksariyatida hissiy-emotsional yopiqlik bor. Shu bois ularning o'zini himoya qilish uslubi bo'yicha mashg'ulotlar tashkil etish, sog'lig'ini tiklash va tib-

biy-psixologik yordam ko'rsatish asosiy yo'nalishlardan biri sifatida belgilab olindi. Shu jumladan, loyihada ishtirok etayotgan xotin-qizlarning ko'pchiligi vaqtida ruhiy bosimdan aziyat chekkan. Shuni inobatga olgan holda, asosiy e'tibor psixologik treninglarga qaratildi. Ishonamanki, olib borilgan suhbatlar va treninglar kelgusida ularning ruhiy holati hamda oilaviy muhitida ijobiy o'zgarishlar ro'y berishiga turtki bo'ladi, – deydi «Go'zal hayot» markazi psixologi Muhabbat Doshekenova.

«Men baxtli ayolman!» loyihasi natijasida bir qancha ayollar jamiyatda o'z o'rnini topishga muvaffaq bo'lgani bois kelgusi yilda ham bu boradagi ishlarni davom ettirish rejalashtirilgan.

**Kurzada REYMKULOVA,**  
podpolkovnik.



## ■ Самаркандская область

**УСПЕХ КИНОЛОГОВ**

В Сурхандарьинской области завершился открытый турнир по служебному многоборью среди кинологов. В нем приняли участие представители всех регионов страны.

Кинологи из Самарканды, рядовые Тальгат Рахмонов и Анвар Бекбутаев, вместе со своими питомцами продемонстрировали высокий уровень подготовки и заняли призовые места.

– Со служебной собакой по кличке Яра готовились к соревнованиям несколько месяцев, – делится рядовой Анвар Бекбутаев. – Нам немного не хватило до абсолютного лидерства, но второе место – тоже достойный

результат. С Ярой, специализирующейся на следорыске, мы работаем с 2016 года, за это время раскрыли немало преступлений.

– Моя служебная собака – Гая. Работа кинолога требует терпения, дисциплины, ответственности, настойчивости. Взаимопонимание с питомцем помогает добиваться высоких результатов. Нужно понимать животное, чтобы эффективно с ним взаимодействовать, – от-

мечает рядовой Тальгат Рахмонов.

Для обоих сотрудников уходящий год стал особенным. У Тальгата родилась дочь Нозима, а у Анвара – сын Мухаммадали. В новом году они мечтают не только участвовать в новых турнирах, но и поступить в вуз, совершенствоваться в профессии.

**Замира БАЛТАЕВА,**  
соб. корр.



## ★ Служба пробации

**ШАНС ДЛЯ ОСТУПИВШИХСЯ**

Бахром Машарипов из Каракалпакстана оказался на распутье жизни. На момент совершения ошибки, стоившей ему свободы, он был в возрасте, когда молодые люди обычно создают семьи и начинают строить свое будущее.



Необдуманное действие привело его на скамью подсудимых. Несмотря на глубокие сожаления о содеянном, изменить прошлое было невозможно. Но, находясь в учреждении по исполнению наказания, дал себе слово: он обязательно начнет новую жизнь, твердо встанет на путь исправления.

Среди помилованных согласно указу Президента Узбекистана – Бахром Машарипов. Для него это шанс начать жизнь с чистого листа.

В соответствии с указом от отбывания наказания по нашему региону полностью

освобождены восемь несовершеннолетних, находившихся на учете пробации. Для четырех человек, отбывавших срок в УИН, наказание было заменено на более мягкое, они переведены под надзор службы пробации.

В рамках реализации указа осуществляются меры по оказанию содействия помилованным лицам в социальной адаптации, привлечении к полезному труду.

**Азамат АЛЛАМБЕРГЕНОВ,**  
подполковник.

Республика Каракалпакстан.

**ПОЗДРАВЛЕНИЕ**

Уважаемые сотрудники органов внутренних дел!

Сердечно поздравляю вас с наступающим Новым годом!

Ваш труд – это не просто работа, а ежедневный подвиг во имя безопасности и спокойствия граждан. Вы – надежная опора для нашей страны, пример мужества, чести и преданности делу. Каждая ваша смена – это вклад в поддержание порядка, защита прав и свобод, а также сохранение справедливости.

В этом году мы с мужем отметили 63 года брака, и за все эти годы мы не раз убеждались, что такие ценности, как верность, честность, доверие, всегда остаются главными.

От всей души желаю вам в Новом году крепкого здоровья, сил и энергии для новых свершений. Пусть ваши семьи всегда будут для вас надежной поддержкой и источником вдохновения, а каждый день приносит радость и удовлетворение от выполненной работы.

С уважением и теплотой,

**Элеонора ОРЛОВЦЕВА,**  
майор в отставке.

HAQIQAT EGILADI, AMMO...

## TUHMAT TOSHNI YORADI..

**Xalqimiz duoga qo'l ocharkan, quruq tuhmatdan asrashini so'raydi. Axir «Tuhmat toshni yoradi, toshni yormasa, boshni yoradi» degan naql bejiz yaralmagan-da...**

– Hayotim davomida bir narsaga achinaman: nohaqlik tufayli olti yil umrim xazon bo'ldi, – deydi iste'fodagi kapitan Nosir Yusupov. – Chunki bu vaqtni qaysidir foydali ishga sarf etganimda, jamiyatimiz rivojiga o'z hissamni qo'shgan bo'lardim.

Poytaxt ko'chalarida ichki ishlar organlari xodimlarining xalq osoyishtaligi yo'lidagi xizmatlariga guvoh bo'lgan Nosir kelajakda ushbu soha vakili bo'lishni maqsad qildi. Bu o'tkinchi hoyu-havas emas edi. Shuning uchun orzusi yo'lida ko'p izlandi, sport bilan mukammal shug'ullandi. Hatto o'quvchilik yillari boks bo'yicha poytaxtimiz birinchiligi uchun o'tkazilgan musobaqalarda ketma-ket 4 marotaba shohsupaning eng yuqori pog'onasidan joy oldi. Shuningdek, yoshlar o'rtasida o'tkazilgan respublika chempionatida ham g'olib bo'lib, sport ustaligiga nomzodlik darajasini qo'lga kiritdi. O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti talabasi bo'lgach, zafarli yurishlarini yana davom ettirgan N. Yusupov mamlakatimiz va xalqaro turnirlarda qatorasiga muvaffaqiyat

qozonib, boks bo'yicha sport ustaligiga erishdi hamda yurtimiz terma jamoasi a'zolariga qabul qilindi.

Ilk xizmat faoliyatini Sirdaryo tumani IIBda, keyinchalik Toshkent shahar Mirobod tumani IIB JQB tezkor vakili lavozimida davom ettirgan N. Yusupov unga nisbatan tuhmat sababli olti yilga ozodlikdan mahrum etiladi.

– Shu kuni ukamning nikoh to'yi bo'layotgan edi, – deya xotirlaydi lavhamiz qahramoni. – Uyimizga yig'ilgan barcha qarindoshlarga bugun, albatta, sudda yutib, yorug' yuz bilan qaytaman, deb umidlarga to'lib



kelgandim. Biroq sudning kutilmagan bu qaroridan o'zimni yo'qotib qo'ydim. Qamalganimni eshitgan onam miokard infarkti kasalligiga uchradi va hozir-

gacha bu xastalikdan jabr chekib kelayotir... O'zim olti yillik sinovlardan keyin jamiyatdagi o'rnimni qayta topishga biroz qiynaldim. Oilamni boqish uchun avvaliga ijaraga mashina olib kirakashlik qildim, so'ngra esa qurilishda ishladim. Nihoyat soha-ga qaytish uchun qilgan sa'y-harakatlarim samara berib, 2022-yilning 3-mart kuni Toshkent shahar sudi jinoyat ishlari bo'yicha hay'ati tomonidan oqlandim. O'tgan yilning 3 may kuni esa IIV rahbariyati tomonidan Bo'ka tumanida tashkil etilgan sayyor qabulda ishtirok etib, oradan o'n besh yil vaqt o'tishiga qaramasdan, yana ichki ishlar organlariga qayta tiklandim.

– Jamiyatimizda ochiqlik va oshkoralik siyosati joriy etilib, adolat tantana qilganidan behad mamnunman, – deydi N. Yusupov. – Buning uchun davlatimiz hamda vazirlik rahbariyatiga, qolaversa, mening sevimli kasbimga qayta tiklanishimga o'z hissasini qo'shgan barchaga minnatdorlik bildiraman.

– Turmush o'rtog'im qamalganida to'ng'ich qizim uch yarim yoshda edi, – deydi qahramonimizning ayoli



Dildora Yusupova. – Oradan sakkiz oy o'tib, ikkinchi farzandimiz ham dunyoga keldi. Ana shunday qiyin davrda sabr-bardosh va metin iroda bilan bolalarimning yonida bo'lib, ularga mehr berdim. Mana biz kutgan yorug' kunlar ham kelib, uchala farzandimizni ham birgalikda tarbiyalab, bekam-u ko'st voyaga yetkazyapmiz.

Shunday qilib, bir yarim yil davomida poytaxtimizning Uchtepa tumani «Paxtakor» mahallasi profilaktika inspektori lavozimida fidoyilik bilan xizmat qilgan Nosir Yusupov mazkur hudud aholisining mehrini qozonib, shu yilning 21-noyabr kuni hamkasblari hurmat-e'zozida yorug' yuz bilan pensiyaga kuzatildi.

**Mixli SAFAROV,**  
o'z muxbirimiz.

Toshkent shahri.

YOSHLAR HAFTALIGI

## KATTA TAASSUROTDLAR BILAN

**Ichki ishlar vazirligi tizimida davom etayotgan haftalik doirasida respublikaning barcha hududlaridan tashrif buyurgan bir guruh yosh xodimlar Toshkent shahar IIBda bo'lishdi.**



Dastlab ular bosh boshqarmaning Axborot multimediyaga markazi faoliyati, uning moddiy-texnik imkoniyatlari, jihozlanishi, aholi murojaatlariga tezkor munosabat bildirish, xodimlarning jinoyatchilikka

qarshi kurash, huquqbuzarliklarning oldini olish borasida amalga oshirilayotgan ishlari bilan tanishdi. Keyingi manzil Ma'naviy-ma'rifiy ishlar va kadrlar bilan ta'minlash xizmati bo'ldi. Bu yerda tash-

kil etilgan «Vatanparvarlik burchagi» va xizmatlarga nomzodlarni qabul qilish tartibi borasida yaratilgan elektron dasturning ishlash tizimini ko'zdan kechirishdi. Shuningdek, Yagona tezkor boshqaruv markazining jinoyatchilikni «issiq izida» fosh etish, huquqbuzarliklarning oldini

olish imkoniyatlari, ilg'or texnologiyalardan samarali foydalanish usullari, tezkorlikni ta'minlash jarayonlari ularda katta taassurot uyg'otdi.

IIBB «Shon-sharaf» muzeyiga tashrif buyurgan yoshlar tarkibiy va hududiy bo'linmalarga tegishli turli eksponatlarni qiziqib

tomosha qilishdi, xizmat vazifasini bajarish chog'ida mardona halok bo'lganlar xotirasiga o'rnatilgan xotira monumenti poyiga gullar qo'yishib, o'z hurmat va ehtiromlarini namoyish etishdi.

**O'z muxbirimiz,**  
Toshkent shahri.





Мен узоқ йиллар ички ишлар органларида хизмат қилдим, масъулиятли раҳбарлик лавозимларида ишладим. Кўплаб шогирдларим бугунги кунда турли соҳавий хизматларда фаолият кўрсатиб, эл-юрт осойишталигини таъминлашга муносиб ҳисса қўшишаётганидан фахрланаман.

Ўзим ҳозирда Ўзбекистон Республикаси Президентининг Навоий вилоятидаги Халқ қабулхонаси мудирининг сифатида аҳолининг муаммоларини ҳал этиш чораларини кўряпман. Бунда ички ишлар органларидаги фаолиятим давомида тўплаган тажрибам асқатапти. Жамоамиз билан халқимизнинг оғирини енгил қилиш борасида анчагина ишларни амалга оширдик.



Шу маънода ўтаётган йил самарали кечди. Тўғри, муайян йўқотишлар ҳам бўлди. Лекин ҳаёт бу – ҳаёт қонуни. Замон олдимизга одамларни ҳаётдан, давлатимиздан рози қилиш борасида янги вазифаларни қўймоқда. Бу вазифаларни бажариш йўлида барча куч ва имкониятларимизни ишга соламиз.

Фурсатдан фойдаланиб, ҳамкасбларимни, соҳа фахрийларини эшик қоқиб келаётган Янги йил байрами билан қизгин табриклайман! Барчаларига 2025 йил қут-барака, янги муваффақиятлар келтиришини тилайман!

**Файзулла ҚУВОНДИҚОВ,**  
истеъфодаги полковник.

## NIYATINGGA YETGIN, DILNURA!

**E**rtalab ishga ketayotib, qizim Dilnurani maktabiga kuzatib qo'yaman. U Davlatobod tumanidagi 33-maktabning 4-sinfida o'qiydi. Rus va ingliz tillariga qiziqadi, matematika fanini chuqur o'rganadi. Darsdan so'ng to'g'araklarga qatnaydi.

Qiz bola otasiga tortadi, deyishadi. Dilnura ichki ishlar sohasiga qiziqadi. Uyg'a qachon, qaysi payt yetib borishimdan qat'i nazar, meni ko'rishi bilan yugurib kelib salom beradi. Kasbimga bo'lgan qiziqishi tufaylimi, ichki ishlar organi xodimi bo'lish uchun nimalar qilishim kerak, deya ko'p savol beradi.



Ba'zan ishxonamga ham kelib tura-di. Xizmat kiyimidagi xodimalarni ko'rib, quvonchlarini yashira olmaydi. Ko'zlari charaqlab turgan qizalog'imning qalbida Vatanga sadoqat uyg'ongani, kichik bo'lsa-da, o'z oldiga katta maqsadlar qo'yganidan faxrlanib ketaman. Faoliyatimning har lahzasida oilalar va ularda kamol topayotgan bolalar ko'z o'ngimdan ketmaydi. Axir har bir oiladagi bolalar qalbida otanasiga izdosh bo'lishdek ezgu orzu bor. Xuddi qizimdagi kabi, murg'ak qalblardagi orzular amalga oshishi uchun ham ichki ishlar organi xodimlari o'z kasbiga sodiq, doim hushyor va sergak bo'lmog'i lozim.

Bugun intilgan, izlangan har bir kishi harakatiga yarasha natijalarga erishmoqda. Buning uchun sharoit ham, imkoniyatlar ham bisyor. Sohamizda erkaklar bilan bir safda faoliyat olib borayotgan xotin-qizlar erishayotgan natijalar ham zalvorli. Ular jamiyatda tinchlik-osoyishtalikni ta'minlash, huquqbuzarliklarga qarshi

kurashish, jinoyatlarni fosh etishga o'z hissalarini qo'shib kelmoqda. Ayniqsa, sport musobaqalari, intellektual o'yinlar, festival va forumlarda viloyat ichki ishlar boshqarmasi xodimalari yuksak marralarni zabt etib kelmoqda.

Safimizdagi xotin-qizlar timsolida qizalog'imning kelajagini ko'rganday bo'lamen. Mard, jasur, bilimli ichki ishlar organlari xodimalari ham balki kechagina qizim kabi otasiga munosib izdosh bo'lish ilinjida yurgandir, balki akasiga havas qilgandir? Nima bo'lganda ham, ularning matonat va jasorat jamuljam bo'lgan oilada kamol topganiga shubha yo'q.

Ana shu o'ylar og'ushida qat'iyatli, mehribon qizalog'imning orzularini amalga oshirish uchun shart-sharoit yaratib berishim kerakligini his qilaman.

**Bahodir ISAKOV,**  
Namangan viloyat IIB HPB  
inspektori, mayor.

## YOSHLAR – KELAJAK BUNYODKORI

### ORZUYI OSMON JAVLONBEK



**B**ir yilga yaqin Andijon shahridagi maktabda o'qituvchi bo'lib ishlagan Javlonbek Sobirjonov ichki ishlar organlaridagi faoliyatini Andijon shahar IIOFMB 1-sonli Ichki ishlar bo'limi hududiy profilaktika inspektori lavozimida boshlagan. Podpolkovniklar Shohrux Nazirov va Fazliddin Shokirovlarni o'ziga ustoz deb bildi.

Bugungi kunda shahardagi «Taraqqiyot» mahallasida profilaktika inspektori etib tayinlangan Javlonbek Sobirjonov ishni aholi bilan tanishish, mahalla holatini o'rganish va muammolarni aniqlab, bartaraf etishdan boshlagan.

– Mahalladagi 24 ta ko'p qavatli uy va hovlilarda qariyb ikki yarim ming nafar fuqaro istiqomat qiladi, – deydi u. – Aholi asosan xususiy tadbirkorlik bilan shug'ullanadi. Har kuni hududni aylanish chog'ida duch kelinadigan muammoli masalalarni mahalla mutasaddilari va faollari bilan birgalikda imkon qadar joyida hal etishga harakat qilib kelyapmiz.

Mahalla hududida o'rnatilgan 30 dan ziyod tashqi kuzatuv kameralari barqaror ijtimoiy tartibni saqlashda muhim rol o'ynamoqda. Bundan tashqari, muqaddam sudlangan fuqarolar va jinoyat sodir etishga moyil shaxslar ishtirokidagi profilaktik ishlar faol olib borilyapti. Ushbu toifadagi fuqarolar bilan individual suhbatlar o'tkazish, ularni doimiy ish bilan ta'minlash, kredit va subsidiyalar ajratish halol mehnat qilishga rag'bat bo'lmoqda.

– Profilaktika inspektorimiz hamisha odamlar orasida, – deydi fuqaro Zokirjon Rasulov. – U kimdir qabuliga kelishini kutib o'tirmaydi, har bir uyning eshigini o'zi qoqib, odamlar bilan suhbatlashadi, muammolarni o'rganadi va hammaga yordam berishga harakat qiladi. Jonkuyarligi, yosh-u qarining qalbiga yo'l topa olgani uchun uni hamma hurmat qiladi.

Aytish joizki, sport ustaligiga nomzod Javlonbek Sobirjonov bolaligidan boks bilan shug'ullanib keladi, u viloyat va respublika miqyosida o'tkazilgan ko'pgina nufuzli turnirlar ishtirokchisidir.

– Kelgusi yili oliy yuridik ma'lumot olish uchun IIV Akademiyasining sirtqi bo'limiga o'qishga kirishni niyat qilganman. Hozir o'z ustimda ishlab, bilimlarni boyitish harakatidaman, – deydi lavhamiz qahramoni.

**Boris KLEYMAN,**  
o'z muxbirimiz.

Andijon viloyati.



Аспект профилактики

## ПРАЗДНИК БЕЗ ПРОИСШЕСТВИЙ



**В подразделениях органов внутренних дел проходят организационные мероприятия. Ключевой вопрос – эффективное обеспечение общественной безопасности в дни празднования Нового года.**



Под председательством начальника ГУВД города Ташкента генерал-майора Азиза Ташпулатова проведено видеоселекторное совещание с участием руководителей районных УКД ОВД, отраслевых служб. Детально обсуждены меры по укреплению правопорядка, организации дополнительных маршрутов па-

трулирования, постов охраны объектов, предупреждению правонарушений во взаимодействии с активом махаллей. Руководство ГУВД подчеркнуло значимость соблюдения положений Кодекса профессиональной культуры и служебной дисциплины сотрудников ОВД.

Соб. корр.

### ■ Бухарская область



Службу в органах внутренних дел Э. Атакулов начал 12 лет назад. Окончил Высшие курсы по подготовке сержантского состава Академии МВД, в 2023 году – заочный факультет Академии.

● В 2015 году занял третье место в республиканских соревнованиях по рукопашному бою среди сотрудников правоохранительных органов.

● В 2016 и в 2017 годах на международных соревнованиях по комбат айкудо атлет занял первое место.

● В 2021 году в Навои успешно выступил на открытом турнире среди профессионалов по джиткундо, проходившем в спортивном комплексе «Шарқ якка курашлари», стал обладателем чемпионского пояса.

● В 2023 году на чемпионате Азии по джиу-джитсу завоевал третье место.

● В 2024 году стал победителем республиканского первенства по пенчак силат (общее название индонезийских и малайских боевых искусств).

Социальная защита

## ОТКРЫТЫЙ ДИАЛОГ

**В нашей стране осуществляются комплексные меры по обеспечению прав и законных интересов женщин, их социальной защите. Изучаются вопросы, волнующие соотечественниц.**

В Ургенчском государственном университете прошла акция под девизом «Мы против притеснения и насилия!» В мероприятии приняли участие студенты и педагоги вуза, представители городского хокимията, махаллей, правоохранительных органов.

В своем выступлении старший инспектор по вопросам женщин ОПП УКД ОВД капитан Зухра Тиллабаева подчеркнула, что защита прав женщин, повышение их правовой культуры, социальной активности – в центре внимания государства и общества. Деятельность в данном направлении осуществляется во взаимодействии. Это дает положительные результаты.

– Цель – раннее выявление имеющихся проблем, принятие по ним необходимых мер. Важно оградить женщину от любого проявления притеснения и насилия, чтобы предотвратить возможные негативные последствия, – подчеркнула преподаватель факультета математики Гавхаржон Юсупбоева.

Мероприятие проходило в форме доверительного диалога. Особое внимание было уделено профилактике противоправных деяний среди девушек и женщин, повышению осведомленности соотечественниц о мерах социально-правовой защиты.

**Худойберган ЖАББОРОВ,**  
соб. корр.

Хорезмская область.



## НОВЫХ ПОБЕД!

**Сотрудник УВД Гиждуванского района старший сержант Элёр Атакулов дружит со спортом.**

– С юности мечтал носить форму, как мой отец. Он всегда говорил: чтобы этого добиться, нужно заниматься спортом, быть сильным, храбрым. Будучи школьником начал посещать секцию восточных единоборств. Тренировался под началом Темура Гиясова и Иноята Ражабова, – говорит Элёр. – Начал принимать

участие в спортивных соревнованиях.

На городских соревнованиях по рукопашному бою Элёр ежегодно завоевывал призовые места. Во время учебы в Бухарском автомобильном колледже стал абсолютным чемпионом в своей весовой категории на областном первенстве. На республиканском эта-

пе соревнований занял третье место.

В проходившем недавно в Ташкенте Кубке Узбекистана по джиу-джитсу Э. Атакулов завоевал право участвовать в 8-м чемпионате Азии, который состоится в Бухаре в январе 2025 года. Желаем Эльёру новых побед!

**Мирзокул АХАДОВ,**  
соб. корр.



## YASHIL BOYLIKLAR —



# SALOMATLIGIMIZ VA FAROVON HAYOTIMIZ MANBAYI

(2025-yil – Atrof-muhitni asrash va «yashil» iqtisodiyot yili)

So'nggi yillarda dunyoda tabiat «chekinmoqda». Harorat oshishi va yog'in-garchiliklardagi o'zgarishlar, daraxtzorlar kamayishi, qishloq xo'jaligi degradatsiyasi kuchaymoqda. BMT ma'lumotlariga ko'ra, millionga yaqin o'simlik va hayvonot turlari yo'q bo'lish arafasida. So'nggi 50 yilda yovvoyi tabiat dunyosi 69 foizga qisqardi, iqlim o'zgarishi, noqonuniy ov va savdo kabi jiddiy tahdidlar natijasida hayvonlarning genetik resurslari qisqarib ketdi. Natijada 100 dan ortiq tur, Markaziy Osiyoda esa 26 turdagi qushlar, 12 turdagi sut emizuvchilar, jumladan, Turon yo'lbarisi, Osiyo qoplani va boshqa endemik turlar butunlay yo'q bo'lib ketdi.

Ochig'ini aytganda, uzoq yillar davomida yurtimiz boyliklarining pala-partish o'zlashtirilgani, yaqin vaqtlargacha qishloq xo'jaligi sohasida «paxta yakkahokimligi» hukm surgani uchun tabiat bilan iqtisodiyot o'rtasidagi muvozanat buzilgani sir emas. Ayniqsa, boylikning onasi bo'lgan yer-suv resurslaridan oqibatini chuqur o'ylamasdan, noto'g'ri foydalanish natijasida ekin maydonlarimiz yaroqsiz, unumsiz holga kelib qoldi. Orol dengizining qurishi, ekologik vaziyatning yomonlashuvi nafaqat qishloq xo'jaligiga, balki milliy iqtisodiyotimizga va xalqimizning salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatdi.

Tan olib aytish kerak, qishloq xo'jaligi oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning asosiy tarmoqlaridan biri sanaladi. Bugun oziq-ovqat ta'minotini barqaror yetkazib berishdagi qiyinchiliklar hamda global savdodagi to'siqlar ham millionlab insonlar hayotida salbiy iz qoldirmoqda. BMT ma'lumotlariga ko'ra, ayni paytda dunyodagi 22 ta davlatda oziq-ovqat tanqisligi kuzatilmoqda. Mamlakatimizdagi aholining o'sishini, shuningdek, yer maydoni kengayib qolmasligini e'tiborga olib, yer va suv resurslarining sifatiga ta'sir qiluvchi ob-havo sharoiti o'z kuchini ko'rsatayotgan hozirgi sharoitda «yashil» iqtisodiyotni yaratish yo'liga o'tish dolzarbdir. Jahon resurslari institutining prognoziga ko'ra, 2040-yilga borib, O'zbekiston sayyoramiz bo'yicha suv tanqisligi eng yuqori bo'lgan 33 ta mamlakatdan biriga aylanadi. Hosildorlikning kamayishi mamlakatimiz oziq-ovqat xavfsizligi va to'lov balansini ta'minlash borasida jiddiy oqibatlariga olib kelishini

unutmasligimiz kerak.

Prezidentimiz Koreya Respublikasida o'tkazilgan «Yashil o'sish va global maqsadlar uchun hamkorlik – 2030» (P4G) ikkinchi xalqaro sammitida so'zlagan nutqida: «Bugungi kunda ona tabiatning o'zi bizga yo'llayotgan ogohlik qo'ng'irog'iga beparvo bo'lmasligimiz kerak. Afsuski, iqlim o'zgarishlari tobora kuchayib bormoqda. Biz yashayotgan Markaziy Osiyoda so'nggi 30 yilda o'rtacha yillik harorat taxminan bir darajaga ko'tarildi. Min-taqamizdagi asosiy daryolarning havzasi va biologik xilma-xillikning qisqarib b o -

qilmayapti. Boshqa choramiz ham yo'q», deb ta'kidlaganlarida umumiy uyimizga ko'zga ko'rinmas xavf-xatarining oldini olishda barchamiz mas'ul ekanligimizni nazarda tutib, Markaziy Osiyoning ajralmas qismi bo'lgan mamlakatimizning barqaror rivojlanishiga, ekologik xavfsizligiga erishish, hozirgi va kelajak avlod uchun qulay atrof-muhitni yaratish hamda tabiiy resurslarni saqlashga yo'naltirilgan davlat siyosatini ro'yobga chiqarishni ta'minlash maqsadi mujassam edi.

«Yashil» iqtisodiyot iqtisodiyot fanlarining bir yo'nalishi sifatida XX asrning oxirida paydo

«Yashil» iqtisodiyot quyidagi tadbirlarni amalga oshirishni birinchi navbatdagi masala sifatida kun tartibiga qo'yimoqda:

**birinchidan**, aholining yuksalib borayotgan ehtiyojlarini qondirib, ularning farovonligi, yashash darajasi va sifatini oshirish uchun moddiy ne'matlarni yaratishni barqaror ravishda ekologiya va atrof-muhitga zarar yetkazmasdan ko'paytirib borish lozim;

**ikkinchidan**, ishlab chiqarish va iqtisodiyotni rivojlantirish uchun energiya resurslari kerak bo'ladi, bularni qayta tiklanadigan energiya manbalari hisobidan ko'paytirish, jamoat transportini ham elektr quvvati bilan yuradiganlariga almashtirish, energiyani tejaydigan binolarni barpo qilish kabi yo'nalishlarda ishlarni olib borish;

**uchinchidan**, atrof-muhitga zararli gazlarni chiqarmaydigan, atrof-muhitni asraydigan, ekologik toza texnologiyalarni yaratish orqali ekologik toza mahsulotlarni yetishtirish masalasiga ham alohida ahamiyat berish lozim bo'ladi;

**to'rtinchidan**, bir tomondan, tabiatdagi barcha resurslar cheklangan bir paytda inson ehtiyojlari cheksizligini inobatga olib, ularning muvofiqligini ta'minlash maqsadida ne'matlarni ishlab chiqarishni kengaytirishni tabiiy resurslarni kamaytirmasdan amalga oshirish choralarini ham ko'rish dolzarb masalalar sirasiga kiradi;

**beshinchidan**, aholi, ayniqsa, maktab o'quvchilari, talaba-yoshlarni tabiatni tushunish, ekologik ta'lim-tarbiya, ezgulik, ko'ngilchanlik, rahmdillikka dav'at etuvchi ekologik madaniyatni shakllantirish zarur bo'ladi.

faoliyatning zamonaviy yo'nalishi tushuniladi.

Prezidentimiz tomonidan «yashil iqtisodiyot»ga o'tish va uglerod neytralligiga erishish Yangi O'zbekistonning ustuvor strategik vazifasi etib belgilandi. Chunki «yashil iqtisodiyot»ga o'tish mamlakatimizda ekologik vaziyatni tubdan yaxshilash, inson hayotiga zararli ta'sir o'tkazuvchi ekologik muammolarni bartaraf etish imkonini beradi.


Davlatimiz rahbarining 2022-yil 2-dekabrda «2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining «yashil iqtisodiyot»iga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori qabul qilinganini eslaylik. Mazkur hujjat bilan 2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasida «yashil» iqtisodiyotga o'tish va «yashil» o'sishni ta'minlash dasturi tasdiqlandi.

O'zbekiston bioxilma-xiligi 27 mingdan ortiq turlarni o'z ichiga oladi. O'simlik dunyosi 11 ming turni tashkil etadi (o'simliklarning 324 turi va qo'ziqorinning 3 turi O'zbekistonning «Qizil kitob»ga kiritilgan). Shuning

uchun hayvonot va o'simlik dunyosi obyektlaridan noqonuniy foydalanish ustidan nazoratni kuchaytirishimiz kerak.

Atrof-muhitga zararli ta'sirlarning oldini olish maqsadida mamlakatimizda «Yashil makon» umummilliy loyihasi amalga oshirilmoqda. Hududlarimizda «yashil bog'lar» va «yashil jamoat parklari»ni barpo etishdek ezgu ishlar amalga oshirilmoqda. O'tgan davr mobaynida loyiha doirasida 588 gektar oziq-ovqat va ekologik xavfsizlikka xizmat qiladigan «yashil bog'lar», inson salomatligiga xizmat qiladigan 662 gektar «yashil jamoat parklari», Buxoro, Nukus, Xiva va Urganch shaharlari atrofida 40 km masofada «yashil belbog'lar» barpo etildi. E'tiborlisi shundaki, aholi maskanlari va mahallalarda «yashil maydonlar»ni ko'paytirish uchun maqsadli mablag'lar ajratilmoqda. Barcha davlat idoralari, korxonalar va oliy ta'lim muassasalarida «yashil bog'lar» yaratilmoqda.

**Sharif QOBILOV,**  
IIV Akademiyasi  
professori, polkovnik.



rayot-gani jiddiy xavotir uyg'otmoqda. Bug'lanish darajasi oshiradigan gazlar va atmosferaning keng miqyosda ifloslanishi muammolarni yanada chuqurlashtirmoqda. Bugungi kunda «yashil taraqqiyot» borasidagi maqsadlarga erishish uchun mamlakatlarning harakatlari yanada faol va samarali bo'lishi kerakligiga hech kim shubha

bo'lgan.

«Yashil» iqtisodiyot deganda,

insonning eng hayotiy muhim manfaatlari, ya'ni hayoti va sog'lig'i uchun zarur bo'lgan resurslarni, atrof-muhit va ekologiyani asrab-avaylagan va unga zarar yetkazmagan holda saqlab qolib, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalari bilan bog'liq iqtisodiyotni yanada rivojlantirishni amalga oshirishga asoslangan



SARHISOB

## YANGI YIL UYG'OTGAN HISLAR

Do'kon qarshisidagi bezatilgan archa, izg'irinni pisand qilmasdan, ko'p qavatli uy ro'parasidagi maydonda sirpanchiq uchayotgan bolalar, sovg'a tutgan o'g'lini yetaklab olgan ona, bayram bozorligi bilan to'lgan katta sumkani ko'targancha uyi tomon shoshilayotgan erkak. Bularning barchasi Jizzax shahar IIB 4-sonli Ichki ishlar bo'limi HPG profilaktika katta inspektori, mayor Azamat Shodmonqulovning yuragida Yangi yil bilan bog'liq iliq hislarni uyg'otdi. Keyin umrining yana bir yili ortda qolganligini o'ylab, bu davrda nimalarga erishganligi-yu nimalarni yo'qotganligini sarhisob qila boshladi.

Jumladan, yil davomida «Yoshlik» mahallasida jinoyatchilikning oldini olish payida bo'ldi. Ayni maqsadda huquqiy e'tibordagi 56 nafar shaxs bilan profilaktik ishlarni uzluksiz amalga oshirdi. Aholi, xususan, yoshlar va o'quvchilar o'rtasida huquqiy targ'ibotni kuchaytirdi. Pirovardida, mahallada jinoyatlar soni 13 tadan 2 taga kamaydi.

Tabiiyki, bu natijaga yolg'iz o'zi erishgani yo'q, boshqa sohaviy xizmatlar vakillari hamda mahalla yettiligini ko'magini har qadamda sezib turdi. Ishini ayni maromda davom ettirsa, 2025-yilda mahallasida birorta ham jinoyat sodir bo'lmasligiga ishonadi. Mayor erishgan muvaffaqiyatlar shu bilan tugamaydi. Chunonchi, lavozimi oshdi, profilaktika katta inspektori bo'ldi.

Poyoniga yetayotgan yilda oilasi hayotida ham anchagina quvonchli voqealar yuz berdi. Xususan, ichki ishlar organlari xodimlari uchun Sharof Rashidov tumanining «Kuyovboshi» mahallasida barpo etilayotgan yakka tartibdagi turarjoylardan birini unga ajratishga qaror qilindi. Turmush o'rtog'i Nargiza Shodmonqulova esa uyda maktabgacha ta'lim tashkiloti ochdi.

Xuddi shunday, 3 nafar o'g'li sportda arzigulik yutuqlarni qo'lga kiritdi. Xususan, kattasi Behruzbek Fayzullayev bu yil viloyat va respublika miqyosida boks bo'yicha o'tkazilgan o'nga yaqin sport musobaqalarida shohsupaga ko'tarildi. Jumladan, sentabr oyida Tojikistonda Markaziy Osiyo davlatlari vakillari ishtirokida uyushtirilgan chempionatda oltin medal sohibi bo'ldi.

Futbol maktabida tahsil olayotgan o'rtancha o'g'li Davlatbek esa jamoadoshlari bilan birga, Toshkent shahri hamda Samarqand viloyatida o'tgan turnirlarda birinchi o'rinni egalladi. Kichigi Asadbek ham ikki yildan buyon taekvando bilan shug'ullanadi, u ham qator musobaqalarda g'oliblar safidan joy oldi.

Shularni o'ylarkan, 2024-yil oilamiz uchun omadli bo'ldi, degan xulosaga keldi. Keyin soatiga qaradi va navbatchilik qismiga qo'ng'iroq qildi: «Yoshlik»da hammasi joyida, axborot beruvchi mayor Azamat Shodmonqulov, xizmatni davom ettiryapman...».

**Alijon ABDUSATTOROV,**  
o'z muxbirimiz.

Jizzax viloyati.



ФАХРИЙЛАР – ФАХРИМИЗ

Ёши улуг, нуроний инсонлар билан суҳбатлашганда, ҳар қандай одамнинг фикри теранлашиб, маънавий олами бойийди. Чунки ҳаётнинг пасту баландини кўрган, синалмаган синовларда тобланган, ўзининг бой тажрибаси ва ма-лакасига эга бўлган отахонларнинг сўзлари барчага ибратдир.



## ШОГИРДЛАР ЭЪЗОЗИДА

Пойтахтимизда жойлашган ИИБ Қоровул қўшинларига қарашли 7531-ҳарбий қисм Фахрийлар кенгаши раиси, истеъфодаги майор Ҳамид Аҳмедов ҳам ана шундай пири бадавлат инсонлардан са-

лойиҳалаш, қурилиш-таъмирлаш ишларига катта хизмати сингди.

– Устозим ҳаётимнинг ажралмас қисмига айланиб улгурган, – дейди подполковник Ш. Қулиев. – Шу боис доимо у киши билан соҳага



налади. У аввалига юртимиздаги ҳарбий соҳага ихтисослашган билим юртида, кейинчалик Москва шаҳридаги Ички ишлар вазирлиги Академиясида таҳсил олди.

Ҳ. Аҳмедов 30 йилга яқин эл-юрт осойишталиги йўлида астойдил хизмат қилиб, ҳамкасблари ва шогирдлари эъзозидан пенсияга чиқди. Ёш ҳарбий хизматчилар Ҳамид отанинг хонадонига тез-тез бориб туришади. Унинг қимматли ўғитларидан баҳраманд бўлишади.

Ҳозирда 85 ёшни қаршилаган отахон узоқ йиллар давомида взвод командири, шунингдек, ҳарбий қисм муҳандислик хизмати бошлиғи лавозимларида фаолият юритиб, кўплаб хайрли ишларга бош-қош бўлди. Яъни, ҳарбий қисмнинг ҳозирги биноси, аскарлар ва ҳарбийлар ётоқхонасини

доир фикрлар алмашиб, хизматим давомида фойдаланиб келаман.

– Юртимиз тинчлиги ва барқарорлигини кўз қорачиғидек асраш шу юртда туғилиб ўсган ҳар бир инсоннинг муқаддас бурчидир, – дейди лавҳамиз қаҳрамони. – Шу сабабли барча ватандошларимизни киндик қони тўкилган жонажон юртига доимо меҳр-оқибатли ва садоқатли бўлишга чорлаб келаман.

Ҳозирда фарзандлар роҳатини кўриб, кексалик гаштини сураётган Ҳамид ота ва Муҳаббат ая 8 набира ва 2 чеваранинг севимли бобожони ва бувижониси бўлиб, ҳаётдан мамнунлик ҳиссини туйган ҳолда умргузаронлик қилишмоқда.

**Михли САФАРОВ,**  
ўз мухбиримиз.

Ташкент шаҳри.

► Tuman IIBda

# KATTA TUMANNING MAS'ULIYATI

Qo'ng'irotda hududi jihatdan O'zbekistondagi eng katta tuman hisoblanadi. U janubdan Turkmanistonning Toshovuz viloyati, g'arb va shimoldan Qozog'istonning Atirau va Aqtobe viloyatlari bilan chegaradosh bo'lib, bu yerda yirik avtotransport va temiryo'l tarmoqlari tutashgan.



chiqarilgan bo'lsa, mavjud tartiblarni qo'pol ravishda buzgani uchun 22 nafar shaxsning jazo chorasi og'irrog'iga almashtirilgan.

– Yil davomida mutasaddi tashkilotlar bilan hamkorlikda 9 marta mehnat yarmarkasi o'tkazildi, – deydi katta inspektor, kapitan Allamurat Salauatov. – Bu jarayonda guruh hisobida turuvchi 32 nafar shaxsga ishga joylashishi uchun yo'llanmalar berildi.

Tergov guruhi surishtiruvchisi, leytenant Nauriz Tagabergenov yosh va shijoatli xodimlardan biri. U 2023-yilda IIV Akademiyasini tugatib, ilk xizmat faoliyatini Nukus shahar IIOFMB huzuridagi Tergov bo'limidan boshlagan. Ustozlari – podpolkovnik Ravshan Egamberdiyev, kapitan Baxadir Baymurotovlardan tergov sirlarini o'rganyapti. Joriy yil boshidan Qo'ng'irotda tuman IIBda xizmat faoliyatini davom

ettirib kelmoqda. U shu kungacha qadar 42 ta jinoyat ishini tergov qilib, sudga oshirgan.

O'tgan vaqt mobaynida tuman IIB Ekspert-kriminalistika guruhi 296 marotaba tezkor-qidiruv tadbirlari va tergov harakatlarida ishtirok etgan. 94 ta holatda turli yo'nalish bo'yicha ekspertizalar o'tkazilgan. Tuman Migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish guruhi tomonidan esa fuqarolarga ID-karta, chet elga chiqish biometrik pasportlari o'z vaqtida berilib, aholiga sifatli xizmat ko'rsatib kelinmoqda. Ma'lumki, yosh kadrlarning kasbiy mahoratini oshirishda sohada uzoq yillar xizmat qilib, pensiyaga chiqqan faxriylarning boy tajribasidan foydalanib kelinadi. Ayni paytda tumanda ichki ishlar organlarining 325 nafar faxriylari bilan shaxsiy tarkibning xizmat samaradorligini oshirishda bamaslahat ish olib borish yo'lga qo'yilgan.

**Azamat PIRNIYAZOV,**  
o'z muxbirimiz.  
Qoraqalpog'iston Respublikasi.

Joriy yilning o'tgan davrida umumiy jinoyatchilik 2023-yilga nisbatan 3,7 foizga, oldini olish mumkin bo'lgan jinoyatlar esa 14 foizga kamaydi. Bosqinchilik, talonchilik, nomusga tegish va avtotransport vositalarini olib qochish jinoyatlari sodir etilmadi.

– Ijroiy natijalarga erishishimizda joylarda profilaktik tadbirlarning to'g'ri yo'lga qo'yilgani, shuningdek, «mahalla-tuman» tamoyili asosida qator davlat tashkilotlari, keng jamoatchilik bilan hamkorlikda olib borilayotgan ishlar muhim ahamiyat kasb etmoqda, – deydi tuman IIB boshlig'i, podpolkovnik Polat Iskenderov.

Tumanda 22 ta makon, 12 ta ovul va 5 ta posyolka fuqarolar yig'ini mavjud bo'lib, 136 mingdan ortiq aholi istiqomat qiladi. Ularga 39 nafar profilaktika inspektori biriktirilgan. Bugungi kunda hududlardagi jinoyatlar tahlilidan kelib chiqqan holda, mavjud 39 mahalladan 16 tasi «yashil», 17 tasi «sariq», 6 tasi «qizil» hududga kiritilgan.

Xotin-qizlar o'rtasida huquqbuzarlik va jinoyatlarining oldini olish, ularning haq-huquqlarini himoya qilishda tuman IIB HPB xotin-qizlar masalalari bo'yicha katta inspektor, «To'maris» ko'krak nishoni sohibi Juldiz Uteniyazovaning xizmatini alohida ta'kidlab o'tish o'rinli.



**Mayor J.Uteniyazov** tomonidan tazyiq va zo'rvonlikdan jabr ko'rgan 257 nafar xotin-qizga himoya orderlari berilgan bo'lsa, 9 nafari Nukus shahridagi Xotin-qizlarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish markaziga joylashtirilgan.

Tuman IIB JXX Probatsiya guruhi tomonidan jinoyatlar sodir etilishining oldini olish maqsadida muqaddam jinoyatga qo'l urgan shaxslardan 127 nafari hisobdan



MUSHOHADA



# «MAMAJON TANBAL» KIM?

*O'zbek adabiyotining mashhur namoyandalari-dan biri G'afur G'ulom 1903-yil 1-mayda Toshkent shahrining «Qo'rg'ontegi» mahallasida mehnatkash oilasida tug'ilgan.*

*G'afur G'ulom hikoya, ocherk, felyetonlar qatori, «Netay», «Yodgor», «Shum bola», «Tirilgan murda» kabi qissalarini ham o'z kitobxoniga taqdim etdi. Uning 20 ga yaqin she'riy to'plamlari chop etilgan.*

*1943-yildan O'zbekiston FA a'zosi bo'lgan adibga 60 yillik yubileyi munosabati bilan O'zbekiston xalq shoiri faxriy unvoni berilgan.*

**H**ozirgi kunda ko'pchilik Mamajon tanbal kim deb so'rasa, bilishmasa kerak. Bu obraz G'afur G'ulomning «Tirilgan murda» qissasida tasvirlangan qahramon.

Bu qissa 1934-yilda folklor motivlari asosida yaratilgan ilk epik asar. Diqqat qilinsa, qissaning boshlanishi ham kichik janrlardagi an'analarni ijodiy rivojlantirgandek tasavvur uyg'otadi. Muhimi shundaki, G'afur G'ulom ushbu asarida xalq ertaklariga xos an'anaviy boshlamani real makon, real qahramon bilan bog'liq holda qo'llab, o'quvchining asarga bo'lgan qiziqishini kuchaytirishga erishgan.

Qissada jamiyatga dog' bo'lgan dangasalik illati mohirona tarzda hal qilinadi. Bundan maqsad ishchanlik bilan yalqovlik, mehnatsevarlik bilan dangasalik o'rtasidagi kurash asosida mehnatning tarbiyalovchi qudratini tasvir etishdir. Adib o'z qahramoniga «so'z» berib, uning o'ziga xos xarakterini yaratadi. Yalqovlikda afsonaviy dangasalarni ham «bir cho'qishda qochiradigan» Mamajon tanbal mehnatkashlarning ijobiy ta'sirida asta-sekin yalqovlikni tashlab, ilg'or ishchan kishiga aylanganligi ko'rsatib beriladi.

Mamajon timsoli – asta-sekin o'sib, izchil xarakter darajasiga ko'tarilgan obrazdir. Asarning birinchi qismida Mamajonning yalqovligi, tanballigi, erinchoqligi ko'rsatilsa, ikkinchi qismida uning jamoa xo'jaligiga kirishi va qayta tarbiyalanishi, farovon hayotga erishishi tasvirlanadi. Yozuvchi Mamajonning ilk yalqovligi va erinchoqini chuqurroq ochish uchun uni «Ming bir kecha» ertaklaridagi Abutanbalning yalqovligi bilan taqqoslaydi: «Xo'sh desangiz,

Bag'dod degan shaharda Abutanbal degan bir yalqov yigit onasi qoshida yashar ekan. Abutanbal hech qanday ish qilmas ekan. Onasi topib kelgan ovqatni ham chaynab og'ziga solsa, yutgani erinar ekan. Doimo yonboshlab yotar ekan-u, o'rnidan turishga hafsalasi kelmas ekan. Mabodo qo'ltig'idan ko'tarib, tikka turg'izib qo'ysangiz, qadam qo'yishga botinolmas, zo'rlab qadam qo'ydirgan chog'ingizda ham, oyoqlari bir-biroviga chalishib yiqilar ekan...»

Mamajon ham shu qadar yalqovki, u otasi ekib ketgan yarim tanobcha yerdagi jo'xorini qayirib olishga va buni pishirib tirikchilik o'tkazishga ham erinadi. Bu haqda uning o'zi shun-

da y deydi: «Qad-dimni ko'tarish-dan ko'ra chollarning koyishlarini esh-tish osonroq ko'ri-nar edi...»

...Hammasidan ham yo'lakning men yotgan supasiga qarshi solin-gan ikkinchi supasida joylash-gan Olaparning bezovtaligi jonimga tegdi. Darvozadan birorta sharpa sezar-sezmas, darrov zanjirlarini shaldiratib, turumga yopishib vovillay boshlaydi. Uyqumda hech halovat qolmadi.

«It» deganicha bor ekan. Muncha izg'imasa, bach-

chag'arning zerikmagani! Ha, nimayam qila olar edim, ko'nikib ketarman...

Uning qayta tarbiyalanishida jamoa va erkin mehnat katta rol o'ynaganligi haqqoniy

“OVQATDAN UNCHA NOLIYDIGAN EMAS, BOYNING ICHKARISIDAN SARQIT, YUVINDI VA BOSHQALAR CHIQUIB TURADI. FAQAT MENDAN OLAPARGINA XAFA. U O'ZINING NASIBASIGA SHERIK QOLGANI UCHUN BA'ZIDA IRILLAB QO'YADI».

Hatto yurishga ham hafsalasi yetmagan, oldiga tayyorlab qo'yilgan ovqatni yeyishga erinadigan yalqov Mamajon birdaniga ilg'op xodim bo'lib qolmaydi. Uni mehnatga jalb qilishda yaxshi odamlarning ko'rsatgan ijobiy ta'siri Sattorqul obrazida mujassamlashtiriladi.

«Sattorqul aka qo'yarda-qo'ymay shudgorga olib chiqdi. – Bas endi, yotaverma. Sal mehnatga ham qayish. Rang-ing joyiga kelib qopti. To'lishib-san. Yur men bilan, – dedi. Eri-ni-bu-ni-n-g

ravishda tasvirlab berilgan. Yozuvchi bu obrazi orqali mehnatsevarlik g'oyalarini ilgari suradi.

**A**sarning hozirgi kundagi ahamiyati ham katta. Yaqinda Prezidentimiz ijtimoiy himoya sohasidagi ishlar natijadorligi va 2025-yil uchun ustuvor vazifalar muhokamasiga bag'ishlangan yig'ilishda dunyoning eng ruhlantiruvchi «Top-100» ayoli ro'yxatiga kirgan denovlik Dilrom Yo'ldoshevaning ishlarini e'tirof etdi. Bu ayol nogiron bo'lsa-da, tikuv korxonasini ochib, 40 nafar kambag'al xotin-qizni ishli qilgan. Prezident farmoniga muvofiq, yig'ilishda Dilrom Yo'ldoshevaga «Mardlik» ordeni, tantanali ravishda topshirildi.

Bu hayotda to'rt muchasi sog' bo'la turib, o'z o'rnini topa olmayotgan, ota-onasiga boqimanda bo'layotgan yoki bo'lmasa, menga hamma narsani davlat qilib berishi kerak, deya bir ishning boshini tutmagan fuqarolar ham bor oramizda. Aksincha, Dilrom Yo'ldosheva kabi nogiron bo'la turib, nafaqa puliga qarab o'tirmasdan, hunar o'rganib, hatto tadbirkorlik qilib, bir necha o'nlab kishilarni ishli qilayotgan zamonamiz qahramonlari borligi bugungi kun Mamajon tanballarining ko'zini ochishi kerak.

**Sarvar SOBIROV,**  
o'z muxbirimiz.

## PAQILLAMAGAN PAQILDOQLAR

Yangi yil bayrami arafasida yoshlar orasida pirotexnika vositalariga bo'lgan qiziqish keskin ortadi. Biroq uning inson salomatligiga yetkazishi mumkin bo'lgan xavfli jihatlari inobatga olib, respublikamizda pirotexnika buyumlarini qonunga xilof ravishda ishlab chiqarish, tayyorlash, saqlash, tashish, jo'natish, ulardan foydalanish uchun ma'muriy va jinoiy javobgarlik belgilangan.

Jumladan, 18-dekabr kuni soat 21:00 larda viloyat IIB JXX YHXB 2-safarbarlik guruhi xodimlari Peshko' tumani «Quchoq» mahallasi hududidan o'tuvchi avtomobil yo'lini belgilanmagan joydan kesib o'tayotgan piyoda osoyishtalik posbonlarida shubha uyg'otdi.




Shu bois uni to'xtatib, kimligi so'ralganda, u o'zini 1991-yilda tug'ilgan D.B. deb tanishtiradi. So'ng qo'lidagi qora sellofan paketi ko'zdan kechirilganda, ichidan «Britanik» nomli 1200 dona pirotexnika vositalari chiqdi. Holat tegishli tartibda rasmiylashtirilib, D.B. va aniqlangan pirotexnika vositalari tuman IIBga topshirildi.

Bundan tashqari, viloyat IIB JXX YHXB 5-safarbarlik guruhi YPX inspektorlari Jondor tumani hududidan o'tuvchi xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan M-37 avtomobil yo'lining «Ko'cha» aholi yashash joyida 2007-yilda tug'ilgan Sh.Sh. boshqaruvdagi «Cobalt» rusumli transport vositasini to'xtatib tekshirganda, avtomashinada «Treniya» nomli pirotexnika vositalarini olib ketayotganligi ma'lum bo'ldi. Xuddi shunday, G'ijduvon tumani «Sarmijon» YPX maskanida viloyat IIB JXX YHXB 3-safarbarlik guruhi xodimlari tomonidan haydovchi I.A. boshqaruvidagi «Nexia-2» rusumli transport vositasi to'xtatib tekshirilganda, yukxonasida «Britanik» nomli pirotexnika vositalari borligi aniqlandi. Mazkur holatlar bo'yicha tegishli tartibda hujjatlar rasmiylashtirilib, haydovchilar va aniqlangan pirotexnika vositalari tuman IIBga topshirildi.

**U.SHUKURLAYEV,**  
kapitan,  
**M.AHADOV,**  
o'z muxbirimiz.

Buxoro viloyati.



Урок духовности и просвещения

# «ЗЕЛЕНОЕ» БОГАТСТВО – ИСТОЧНИК ЗДОРОВЬЯ И БЛАГОПОЛУЧНОЙ ЖИЗНИ

**Узбекистан активно движется в сторону «зеленой» экономики. Это важно в свете происходящих процессов изменения климата, необходимости снижения углеродных выбросов.**

Страна активно продвигает климатическую повестку. Осуществляется общенациональный проект «Яшил макон». Цель – посадка ежегодно 200 миллионов саженцев деревьев и доведение уровня озеленения республики до 30 процентов. Республика совместно с соседними государствами реализует Региональную климатическую стратегию. Более 10 процентов от общего объема выработки электроэнергии уже приходится на долю возобновляемых источников. И это не предел: Узбекистан располагает значительным потенциалом природных ресурсов для производства электроэнергии (солнце, вода, ветер), что позволяет успешно осуществлять намеченные планы.

Среди достижений запуск 9 крупных солнечных и ветровых электростанций в Бухарской, Джизакской, Кашкардарьинской, Навоийской, Самаркандской и Сурхандарьинской областях общей мощностью 1,6 гигаватта. Введены в эксплуатацию 6 ГЭС в Андижанской, Самаркандской, Сурхандарьинской и Ташкентской областях мощностью 183 мегаватта. Граждане и предприниматели установили солнечные панели, что позволяет вырабатывать 1,5 миллиарда кВт·ч электроэнергии.

Переход Узбекистана на «зеленую» энергетику – важный шаг на пути обеспечения экологической стабильности в регионе, рационального использования ресурсов и удовлетворения потребностей населения в энергии. В этой связи в Стратегии «Узбекистан – 2030» 51-й целью намечено кардинальное повышение показателей использования возобновляемой энергии. В частности, доведение возобновляемых источников энергии до 25 тысяч мегаватт; развитие рынка «зеленых сертификатов» в промышленности и внедрение практики «экологической маркировки»; внедрение системы оценки энергоэффективности (энергоаудита) квартир в многоэтажных домах; перевод городского общественного транспорта на экологически чистое топливо; создание системы мониторинга, охватывающей все парниковые газы, в сфере изменения климата (MRV); и др.

Цель 66 Стратегии предусматривает кардинальное улучшение экологической обстановки в

республике за счет установки и модернизации высокоэффективного пылегазоочистного оборудования и локальных водоочистных сооружений, внедрение в регионах режима экологически чистой территории. При составлении генеральных

экологического фонда на основе программ, направленных на сохранение биоразнообразия, предотвращение эрозии почвы; реализация проекта «Улучшение состояния земель, подверженных деградации в нижнем течении бассейна Аральского моря».

зависимости от ископаемого топлива и уменьшению выбросов парниковых газов.

Узбекистан привержен партнерству на пути к общему благополучию и «зеленому» развитию, международным экологическим инициативам различного уровня и формата. Республика инициировала организацию Многопартнерского трастового фонда ООН по человеческой безопасности для региона Приаралья, сотрудничает с ЮНЕСКО по программе «Зеленое образование». Участие Президента нашей страны во Всемирном саммите по борьбе с изменением климата 29-й сессии Конференции сторон Рамочной конвенции ООН по изменению климата (11-13 ноября 2024 г., Баку) подтвердило следование республики выполнению взятых обязательств. Выступая на мероприятии, Шавкат Мирзиёев подчеркнул, что возобновляемая энергия – это не экономическая цель, а вклад в будущее, результат чувства ответственности перед последующими поколениями.

По инициативе Президента 2025 год в Узбекистане объявлен Годом охраны окружающей среды и «зеленой» экономики, что будет способствовать выведению осуществляемой деятельности на качественно новый уровень. Как заявил глава государства, «использование надежных, безопасных, экономически эффективных и экологически чистых источников энергии – один из главных приоритетов масштабных реформ, проводимых в Новом Узбекистане».

**Радик ТУМΠΑРОВ,**  
соб. корр.



планов городов будет обеспечиваться создание не менее чем на 30 процентах их территории зеленых площадей. Будут усовершенствованы механизмы оценки уровня загрязненности окружающей среды, развита система ее наблюдения и прогнозирования.

Меры по стабилизации экологической обстановки в регионе Приаралья четко обозначены целью 69, в частности: доведение лесопосадок в регионе до 2,3 миллиона гектаров; создание на дне высохшей части Аральского моря дополнительно 600 тысяч гектаров зеленых площадей; реализация проектов фонда «Зеленый климат» и Глобального

В настоящее время в стране уже активно реализуются меры по достижению углеродной нейтральности. В течение следующих трех лет планируется ввести в эксплуатацию 28 крупных солнечных и ветровых электростанций общей мощностью 8 гигаватт. Стратегия реформирования энергетического сектора предполагает, что к 2030 году 40 процентов электроэнергии будет производиться из возобновляемых источников, что позволит сократить выбросы CO<sub>2</sub> на 16 миллионов тонн в год. Важной частью данного плана является создание фотоэлектрических станций, которые будут способствовать снижению



IJTIMOYIY HIMOYA



Toshkent viloyati IIBB Tezkor-qidiruv xizmati JQB katta tezkor vakili, kapitan Azamat Lapasov joriy yilda Nurafshon shahridagi yangi qurilgan uylardan 3 xonali xonadonning egasi bo'ldi. Hozirda oilasi bilan uyiga ko'chib o'tgan lavhamiz qahramoniga kirib kelayotgan yangi yilda tinchlik-xotirjamlik va oilaviy farovonlik tilaymiz.

Yangi uy muborak bo'lsin, Azamat!

INSON QADRI UCHUN

## ODAMLAR ROZI BO'LSIN

Joriy yilning o'tgan davrida Qashqadaryo viloyati IIB Tashkiliy boshqarmasi Murojaatlar bilan ishlash guruhiga 27 mingdan ortiq murojaatlar kelib tushdi. Ularning 14813 tasi o'z yechimini topdi, 10482 ta murojaat mualliflariga huquqiy tushuntirishlar berildi. Vaqt va mablag' talab etadigan 1286 tasi esa nazoratga olinib, ijroga qaratildi.



Tahlillar fuqarolar turli mazmunda, turli masalalar yuzasidan murojaat qilganini ko'rsatadi. Ichki ishlar organlari faoliyatiga taalluqliligidan tashqari, qishloq va mahallalar infratuzilmasini yaxshilash, maishiy va kommunal xizmat bo'yicha muammolarni bartaraf etish, qolaversa, kichik tadbirkorlikni yo'lga qo'yish uchun subsidiya yoki imtiyozli bank kreditlari ajratilishida yordam so'rab qilingan murojaatlar ham katta qismni tashkil etadi. Ularning aksariyati ijobiy hal qilingani e'tiborli, albatta. Masalan, Dehqonobod tu-

manining «Kaltaminor» mahallasida yashovchi bir guruh fuqarolar «Kichik Obaxli» qishlog'iga olib boruvchi yo'l qishda loy, yozda tuproq bo'lishini aytib, ta'mirlash masalasida murojaat qilishgan edi. Mazkur murojaat qat'iy nazoratga olindi va ko'p o'tmay, qishloqning salkam 2 kilometr yo'lga shag'al to'kilib, tekislandi.

Yoki Qarshi shahri 3-sektori hududida yashovchi 12 nafar xotin-qizning doimiy bandligini ta'minlashni so'rab qilgan murojaatlari ham atroflicha o'rganib chiqildi. Masalaga ijobiy ye-

chim topish choralari ko'rib, ayollarning har biriga subsidiya asosida tikuv mashinalari olib berildi.

Bu kabi misollarni yana ko'plab keltirish mumkin. Asosiysi, har bir murojaat diqqatimiz markazida. Chunki ularda aholini qiy-nab kelayotgan tashvish va muammolar aksini topgan. Muammolarning hal etilishiga, fuqarolarning turmush farovonligini yaxshilashga hissa qo'shish muhim vazifalarimizdan biridir.

**Sodiq RAHIMOV,**  
o'z muxbirimiz.

Qashqadaryo viloyati.

MINNATDORLIK

## RAHMAT SIZGA, YIGITLAR!

Inson hayoti misli jumboq. Ertaga nima bo'lishini hech kim bilmaydi. Kichkinagina tikuvchilik se-xim bor edi. Taqdir ekan, bilib-bilmay xatoga yo'l qo'ydim, sudlanib, ozodlikdan mahrum qilish jazosiga tortildim. Jazoni ijro etish muassasasiga olib borilganimda ruhan tushkun holda edim. Endi men ozodlikdan mahrum etilib, mahkumaga aylangan-dim. Dardimni qog'ozga to'kdim:



Laylakning qanotida  
qarosi bordir,  
Mahkumaning yuragida  
yarasi bordir,  
Uyda yig'lab qolgan  
begunoh bolasi bordir,  
Angladimki, jinoyatning  
jazosi bordir!

Ko'nglimdan o'tgan bu fikrni u ko'zimdan uqdi, shekilli, jilmayib: «Onaxon, yoshingiz oltmishga yaqinlashibdi, adashib jinoyat qilgan ekan-siz», dedi. Hamma sizni yaxshi inson sifatida ta'rifladi, degan gaplaridan keyin ko'zimdan yosh to'kildi...

Muassasadagi xodimalar-ning mahkumlarga munosabati kutganimdan mutlaqo boshqacha bo'lib chiqdi. Ular menga iliq, insoniy munosabatda bo'lishdi. Hayotda kishi xato qilishi mumkinligini, ammo undan xulosa chiqarib, to'g'ri yo'lga tushish muhimligini aytishdi. Qay-tadan hayotga umid uyg'ondi. Kurashishim zarurligini angladim. O'zimni namunali tutdim. Mehnatdan qochmadim. Natijada bir yil-u besh oy deganda manzil koloniyasiga o'tkazildim. Koloniya tartib-qoidalariga qat'iy amal qilganim uchun muddatidan oldin ozodlikka chiqdim.

Sudning menga nisbatan shartli jazo qo'llash qaroridan keyin Oqoltindagi o'z mahallamga yo'l oldim. Tuman Ichki ishlar bo'limiga taklif qilinganimda esa, yana qalbimda turli o'ylar, istiholalar tug'ilgani ham bor gap. Kim meni nazorat qilar ekan, to'g'ri munosabatda bo'lisharmikan, degan hadik tinchlik bermasdi. Tuman IIB Probatsiya bo'limida yoshgina katta leytenant meni iliq qarshi oldi. O'zini Abbosjon deb tanishtirib, hol-ahvol so'radi. «Nahotki, jinoyatchiga bunday ehtirom?»

**Tuman IIB Probatsiya bo'limi katta inspektori katta leytenant Abbosjon Akbaraliyev va profilaktika inspektori, kapitan Umidjon Hotamov kunda-kunora xabar olib turishdi. Darhol moliyaviy ko'mak tashkil qilinib, tuman hokimligi bilan kelishgan holda 9 million so'mdan ortiq yordam puli berishdi. Uyimni ta'mirlab berishganida esa quvonchim ichimga sig'masdi. Ularning yordami tufayli hozir mahalladagi bo'sh binolardan birini ta'mirlab, besh-olti nafar ayol bilan yana qaytadan tadbirkorlik ishini boshlayapman.**

Rahmat sizga, fidoyi inspektorlar! El-yurt baxtiga doim omon bo'ling! Yurtimizdagi tinchlik-farovonlikda, ko'ngillar charog'onligi va oilalarning baxtli hayot kechirishida sizlarning beqiyos xizmatlaringiz borligini men o'z hayotim misolida ko'rdim. Yangi yilni yangi umidlar bilan kutib olishimda ko'rsatgan va ko'rsatayotgan ko'magingiz uchun benihoya minnatdorman!

**Muqaddas**  
**ABDURASULOVA.**

Sirdaryo viloyati.

## MULOHAZA

# SHOPOGOLIZM MAHV ETMAYAPTIMI?

Bugun «moda»lar zamoni, desak, ham bo'ladi. Ilgari faqat kiyinishda bo'lsa, hozir gaplashish, yurish-turish, umuman hayot tarzi, hatto telefon tutishgacha «moda»ga rioya qilinyapti. Internetda o'qib qoldim: xorijda bittasi «Iphone 16» olish uchun buyragini sotibdi, yana biri qurg'ur mana shu matoh vasvasasi ta'sirida onasining nomiga yashirincha kredit rasmiylashtiribdi. Ajablanasan, kishi...

Aslida «moda» – biror yangi narsa ko'pchilik tomonidan ommaviy qo'llanilishi, ya'ni urfga kirishi, deyish mumkin. Sumka tutish, ko'zoynak, kiyim-kechak va boshqalar. Hozir gapirish ohangi-yu ijtimoiy tarmoqlar orqali yozishning ham o'z «moda»si paydo bo'lgan. Jamoat joylaridagi bannerlar va OAVda reklama qilishda ham «moda» elementlarini qo'llash urfga kirgan. Chunki reklama – bu jar solish, ovoza qilish, degan ma'noni anglatadi. Shu sababli biror buyum yoki xizmatning boshqalar o'rtasida urf bo'lishida reklama nihoyatda katta rol o'ynaydi.

## «Moda»ga rioya qilish yomon... mi?

Ko'pchilik «moda»ning ketidan quvish durust emasligini aytadi. Sababi, yangi chiqqan va omma orasida urf bo'lgan har qanday mahsulotni sotib olaverish nafaqat kishining o'ziga, balki oila moddiy ahvoriga ham yaxshigina ta'sir qiladi. Shu o'rinda kichik bir misolni, yaqin akamizning menga aytib bergan voqeasini keltirsam:

– Qizim 19 yoshda. U xarid qilish «kasalligi»ga chalingan. Zamonaviy uslubdagi qanday ko'ylak, kiyim-kechak paydo bo'lsa, darrov olib berishimni talab qiladi. Eng achinarlisi, bir marta kiygan kiyimini qaytib kiymaydi. Yangisini olish ilinjida janjal ko'taradi. Uni psixolog ko'rigiga olib borishga majbur bo'ldik.

– Qizingiz shopogolizmga chalingan. Shopogolizm «moda»ga, ya'ni yangilikka haddan tashqari o'chlikdir, – dedi psixolog.

Shundan so'ng psixolog menga shunday savol berdi:

– Qizingiz yoshligida nimani so'rasa, so'zsiz olib bergansiz va bajargansiz, shundaymi?

– Afsuski, ha! – deya javob berdim.

– Demak, qizingizning bu psixologik muammoga, ya'ni xarid qilish vasvasasiga tushib qolishida sizning katta «hissa»ngiz bor!..

Bundan kelib chiqadiki, hadeb



«moda» tendensiyalariga rioya qilaverish ham kasallik ekan. Yana bir haqiqat, biz yashayotgan ayni davrda turli buyumlar-u kiyim-kechaklarni sotib olish uchun ko'rsatilgan manzilga borish ham shart emas. Odamlar viza karta va boshqa masofaviy to'lovlar orqali inter-



**SHOPOGOLIZM** – bu ayolmi yoki erkakmi, kim bo'lmasin, ko'p narsa sotib olsa ham ko'ngli to'lmasligi. Shopogolik esa xarid qilmasa turolmaydigan, pul sarflamasa o'zini yomon his qiladigan insonlar.

net do'konlaridan o'zlariga yoqqan nimaiki bo'lsa, buyurtma qilishlari mumkin. Siz buyurtmani emas, buyurtmaning o'zi sizni topib keladi. Ming afsuski, internetda ko'rsatilgan mahsulotlar sizga reklama qilingan-

so'z bilan aytganda, «moda»ning ortidan ko'r-ko'rona ergashishmaydi. Chunki baribir uning oxiriga yetib bo'lmasligini anglashgan.

Nafsilamrini aytganda, «moda» ortidan quvish isrofgarchilikdan boshqa narsa emas. Isrofgarchilikning esa uvoli juda yomon. Ba'zilarining uyida bemor yotganlar, yetishmovchiliklari bisyor oilalar bor. Lekin bolalarining qo'lida «Iphone»ning eng so'nggi modeli. Uyida hal etilishi kerak bo'lgan qator muammolarga kelganda esa pul yo'q. Qani mantiq, dedingiz keladi...

## «Moda»ga rioya qilish yaxshi... mi?

Navro'z bayramini juda yaxshi ko'raman. Yigitlar egnida beqasmdan chopon, jiyda (juda yengil, choponga o'xshab tikiladi), boshida do'ppi. Qizlar esa atlas, adras kabi milliy liboslarni kiyishadi. Yangi kunning boshlanishi (tengkunlik)da bu milliy matolarimizdan tikilgan kiyimlar «moda» emas, balki rostakamiga urf bo'ladi. Quvonarlisi, bu kabi milliy liboslarga reklama shart emas. Shunchaki, milliy qadriyatlarimiz har qanday yevropacha «moda»dan ustunligining yaqqol isboti bu. Chunki g'arb uslubidagi ochiq-sochiq, bizning mentalitetimizga to'g'ri kelmaydigan liboslar o'rniga, yigit-qizlarimiz milliycha kiyinishni afzal ko'rishadi. Bu esa hammani xursand qilishi aniq. Demak, «moda»ga ko'r-ko'rona emas, o'zimizning milliy tutumlarimizdan kelib chiqib ergashsak, bu faqat yaxshilikka xizmat qiladi.

Rostini aytsam, tizzasi yirtiq shim kiyib, qoshini qirtishlab, sochiga harflar yozdirib, turli shakllar chizdirib olgan yigitlarga va shunday nafis milliy kiyimlarimiz turganida, yarim-yalong'och kiyinib, g'arb madaniyatiga taqlid qilgan qizlarga juda achinaman!..

**Abror POYONOV,**  
o'z muxbirimiz.



INSONPARVARLIK NAMUNASI

## XATODAN – TUZALISH YO'LIGA

**Xato qilmoq bor, uni tuzatmaslik or. O'z qilmishining huquqqa xilofligini anglagan va tuzalish yo'lga o'tganligini qat'iyat bilan namoyon qilgan shaxslarga, ularning iltimosnomalariga binoan, jamiyat va o'z oilasi davrasiga qaytish imkonining berilishi kechirimlilik hamda bag'rikenglik kabi azaliy qadriyatlarimiz ro'yobidir.**

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 32 yilligi munosabati bilan afv etilganlar orasida Bektemir tumanida istiqomat qiluvchi ikki nafar fuqaro ham bor. Ularning hayotga moslashuvi, bandligini ta'minlash, salomatligini tiklash va boshqa ijtimoiy-iqtisodiy hamda maishiy masalalarni hal etish maqsadida tuman IIOFMB Probatsiya guruhi nazoratiga olinib, mahkumlarning yashash manzillari bo'yicha profilaktik tadbirlar olib borish bilan birga, ularning yashash shart-

sharoitlari, turmush tarzi o'rganib chiqildi.

Shuningdek, ushbu fuqarolar tumandagi ko'p tarmoqli tibbiyot markazida tibbiy ko'rikdan o'tkazilib, salomatliklarini tiklash bo'yicha tegishli muolajalar belgilandi. Ularni ish bilan ta'minlash borasida tuman Aholi bandligiga ko'maklashish markazida mavjud bo'lgan bo'sh ish o'rinlar tavsiya etilib, tanlangan ishlar bo'yicha yo'llanmalar berildi. Hayotga moslashuv jarayonidagi ilk muddatlarda ijtimoiy-maishiy hamda moddiy ko'mak ko'rsatish maqsadida tuman Ijtimoiy ko'nikma markazi tomonidan belgilangan moddiy yordam topshirildi.

Bularning bari ularning shu yurt farzandi, uning ajralmas qismi ekanligini anglab yetishi, barcha uchun belgilangan haq-huquqlardan foydalanishi, halol yashash mumkinligini his qilishida muhim qadamdir.

**Sarvar SOBIROV,**  
o'z muxbirimiz.

Toshkent shahri.



### BAYRAM TILAKLARI



– Yangi yil har bir inson intiqib kutadigan shukuhli bayram, ayni paytda, erishilgan yutuqlar, yo'l qo'yilgan kamchiliklarni sarhisob qiladigan, muhim palla. Poyoniga yetib borayotgan 2024-yil elimizning to'y-u tomoshalarida xizmat qilib, xalqning dousini oldik. Kelgusi yilda ham ezgu niyatlarimiz, rejalarimiz bisyor.

Jonajon Vatanimizdagi tinchlik ne'matini asrab-avaylash uchun tunni tonga ulab xizmat qilayotgan ichki ishlar organlari xodimlarining sharaflari xizmatini doimo qadrlayman. Ko'p yillardan beri Farg'ona viloyati IIB bilan do'stona hamkorlik aloqalarini o'rnatganmiz. Soha xodimlarining kasb bayramlari, turli anjuman va tadbirlarida baholi qudrat ishtirok etib, o'z san'atimizni namoyish etib kelamiz.

Ushbu fayzli onlarda barcha yurtdoshlarimizni, jumladan, el-yurt tinchligi yo'lida beminnat xizmat qilayotgan ichki ishlar organlari xodimlarini, xususan, «Postda–Ha nocty» gazetasi mushtariylarini samimiy muborakbod etaman. 2025-yil barchamizni ezgu maqsadlarga eltadigan eng omadli yil bo'lib kelsin!

Bayramingiz muborak bo'lsin!

**Otabek MAMAZOITOV,**  
O'zbekiston davlat filarmoniyasi Farg'ona viloyat bo'limi rahbari, xonanda.

USTOZ – SHOGIRD

## IBRAT OSMONNING SHAMS-UL ANVORI



**Podpolkovnik Baxshillo Ataulayev sakkiz yildan buyon Buxoro shahar IIOFMB Ekspert-kriminalistika bo'linmasi boshlig'i lavozimida samarali faoliyat ko'rsatib kelmoqda.**

– Amaliy tajribamni oshirishda ustozim Baxshillo akaning his-sasi katta. Hodisa joyini ko'zdan kechirish, tergov-tezkor tadbirlarida qatnashish, shuningdek, hodisa joyidan olingan qo'l-barmoq izlari bo'yicha daktokartalarni tekshirishda ustozim bilan bamaslahat ish olib boryapman, – deydi leytenant Shahzodbek Abdullayev.

Kapitanlar – viloyat IIB EKM katta eksperti Akbar Aslonov, Vobkent tumani IIB EKG katta eksperti Sarvar Rashidov, katta leytenantlar – Buxoro shahar IIOFMB EKB katta eksperti Zavqiddin Sadullayev, G'ijduvon tumani IIB EKG katta eksperti Sanjar Salimov, Kogon shahar IIB EKG katta eksperti Doston Rahimov, Kogon tumani IIB EKG katta eksperti, mayor G'azanfar Allanazarov podpolkovnik Baxshillo Ataulayevni ustoz, deya hurmat qilishadi va u bilan faxrlanishadi.

– Bizning sohada boshqalar ko'ra olmagan narsalarni ilg'ash va sezish qobiliyati ko'proq talab qilinadi, – deydi podpolkovnik B. Ataulayev. – Xodimlarimiz ana shunday mahoratga ega bo'lish yo'lida qilni qirq yorib, izlar bilan tillashishda zamonaviy kriminalistik asbob-uskunalar-dan mahorat bilan foydalanib, jinoyatchilarni topishda faoliyat ko'rsatishmoqda.

Leytenant Shahzodbek Abdullayev «To'qimachi» mahallasi Mustaqillik ko'chasi yo'l yoqasida joylashgan savdo do'konida sodir

etilgan 82 million so'mlik kabel simlari o'g'irligi holati bo'yicha hodisa joyiga chiqdi. U hodisa joyini ko'zdan kechirish jarayonida qo'l-barmoq izlarini oldi. Olingan izlar viloyat IIB EKMda mavjud shaxsni avtomatlashtirilgan biometrik identifikatsiya qilish tizimida tekshirilganda, 1 dona qo'l-barmoq izi shu shaharda yashovchi Q.A.ning chap qo'l jimjiloq barmog'idan qoldirilganligi aniqlandi. Shu tariqa, jinoyatchilar ushlendi. Bundan tashqari, tergov harakatlari davomida jinoyatchilarning yana beshta jinoyati ochildi.

Shaharning Amir Temur nomli mahallasidagi uylarning birida ijara asosida istiqomat qilib kelayotgan Sh. Xalilning yashash xonadonidan pullari o'g'irlab ketilganligi holati bo'yicha hodisa joyiga chiqqan leytenant Sh. Abdullayev barmoq izlarini olib, viloyat IIB EKMga taqdim qildi. Markazdagi malakali ekspertlar shaxsni avtomatlashtirilgan biometrik identifikatsiya qilish tizimida tekshirishib, jinoyatchi shaharning Temiryo'Ichilar ko'chasida yashovchi H.R. ekanligini aniqlab berdi. Ushbu jinoyatlarni ochishda u ustozining yordami va maslahatiga doim tayanadi.

Darhaqiqat, ustoz shunday zotki, shogirdini osmon qadar yuksaltiradi. Qoqinsa kuyunadi. Ularni qancha ardoqlasak oz. Ustozlari e'zozlangan yurtda esa haqiqiy farzandlar kamol topadi.

**Mirzoqul AHADOV,**  
o'z muxbirimiz.

Buxoro viloyati.

★ 14 января — День защитников Родины

## ВЕРНОСТЬ ДИНАСТИИ

Старший лейтенант Сергей Лошак продолжает традиции своего рода, посвятив себя воинской службе.



– Дед и отец многие годы прослужили в войсках МВД, вышли на заслуженный отдых в звании майора, – говорит наш собеседник. – Поэтому с выбором профессии вопросов не возникло: перед глазами были отличные примеры для подражания.

После срочной службы в Караульных войсках, в 1999 году добросовестному, ответственному молодому человеку командование войсковой части № 7531 предложило продолжить службу по контракту. Тогда еще сержант С. Лошак был назначен командиром

группы узла связи. Затем перспективного, знающего свое дело военнослужащего перевели в подразделение внедрения новой техники войсковой части № 7801. И здесь он проявил организаторские способности, знания в области информационных технологий.

В 2020 году с созданием в структуре МВД базы обеспечения деятельности воинских формирований Сергей Лошак был назначен на должность начальника отдела.

– Наше подразделение решает задачи, связанные с обеспечением войск охраняемыми системами, специальной и иной техникой, – говорит он. – Опытные специалисты старший сержант Эркин Артыков, сержант Гульнара Шакиржанова образцово выполняют поставленные задачи.

Отметим, что супруга Сергея, Эльвира, тоже военнослужащая. Она в звании сержанта. Вместе воспитывают двоих детей – сына Артура и дочь Милану. Кто знает, возможно и они продолжат славные традиции династии.


**Радик ТУМПАРОВ,**  
соб. корр.

★ На вашу книжную полку

## СТАТЬ СИЛЬНЕЕ И УСПЕШНЕЕ

Служба в органах внутренних дел предъявляет особые требования к личности сотрудника. Умение принимать решения, работать в команде, быть примером для окружающих, проявлять лидерские качества – качества, требующие постоянного самосовершенствования.

Стивен Кови (1932–2012) – американский консультант по вопросам руководства, преподаватель и консультант по организационному управлению.



Его книга «4 правила успешного лидера» – руководство к действию, способствующее пересмотреть подход к работе, личностному росту.

### Честность и открытость

Кови акцентирует внимание на том, что честность и открытость во взаимодействии с коллегами формируют уважение. Это означает: сотрудник должен быть примером соблюдения закона и этических норм, что способствует укреплению его авторитета.

### Фокусировка на главном

В нашей профессии умение определять приоритеты помогает эффективно использовать ресурсы, избегать излишнего напряжения. Принцип особенно полезен в работе с документами.

### Взаимная ответственность

Кови настаивает, что успешный лидер не только контролирует, но и мотивирует. Применительно к нашей службе правило означает необходимость создания атмосферы взаимопонимания и поддержки в подразделении.

### Учиться и совершенствоваться

Книга мотивирует на систематическую работу над собой, повышение профессионального уровня, что особенно актуально в динамичной среде правоохранительных органов.

Убеждена, что каждый, прочитавший книгу, осознает ее главную мысль: лидерство – это не звание и не должность, а ответственность перед коллегами, перед командой.

Книгу рекомендую прочитать всем, кто хочет научиться выстраивать здоровые отношения, стать примером для окружающих, сильнее и успешнее как в профессиональной, так и в личной жизни.

**Дилшоода РАШИДОВА,**  
подполковник.

## ИСТОРИЯ В ЛИЦАХ



В системе УГАИ ГУВД города Ташкента в составе спецдивизиона непростую службу несли и женщины. Они управляли потоками автомашин, обеспечивали безопасность дорожного движения.


**На снимке:** инспектор ДПС младший сержант Ф. Низомитдинова во время несения службы. 1982 год. (Фото из архива ГУВД города Ташкента).





QILMISH – QIDIRMISH

**H**alollikda hikmat ko'p. Darhaqiqat, peshona teri ortidan topilgan pul hisobiga kun kechirish xotirjamlikka zamin bo'ladi. Uchquduqlik 22 yoshli Madiyor Soliyevning (ism-shariflar o'zgartirildi) tayinli ishi, tuppa-tuzuk hunari bor edi. U Navoiy kon-metallurgiya kombinatiga qarashli korxonalarining birida smena asosida elektromontyor bo'lib ishlardi. Ishdan bo'sh vaqtida esa tumandagi uyali telefon sotuvchisiga yordamlashardi. Bu yaxshi, albatta. Ammo nafsining hakalak otishi unga qimmatga tushdi.



Gap shundaki, Madiyor kredit evaziga telefon va boshqa qurilmalarni bo'lib to'lash sharti bilan sotib olish uchun kelgan xaridorlarning shaxsiy identifikatsiya ma'lumotlarini saqlab qo'ydi. Oldi-sotdi tugagach, boshqa bank ilovalaridan telefon egalari nomiga turli qiymatdagi kreditlar rasmiylashtirib, virtual hisob kartasiga tushirishga erishdi. U xuddi shunday harakatlarni naq 12 kishiga nisbatan amalga oshirib, o'zgaralar nomiga 140 mln so'm kredit rasmiylashtirdi. Bu pullarni esa o'zi mukkasidan ketgan onlayn qimor o'yiniga tikdi.

Ko'p o'tmay nomiga noma'lum shaxs tomonidan kredit olingani xususida fuqarolar Uchquduq tumani IIBga murojaat qilishdi. Mazkur holat yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining tegishli moddasiga asosan jinoyat ishi qo'zg'atildi. Tergov-tezkor guruhi a'zolarining sa'y-harakatlari bilan ushbu kiberjinoyat Madiyor Soliyev tomonidan sodir etilgani aniqlanadi.

Jinoyat ishlari bo'yicha Uchquduq tuman sudida M. Soliyev aybiga to'liq iqror ekanligini aytdi. Noqobil o'g'ilning qilmishlari natijasida jabrlanuvchilarga yetkazilgan zararni to'lash uchun sho'rlik ona o'zi yashab turgan uyni sotib, zararni to'liq qoplagani ham ma'lum bo'ldi.

Sud holatni to'liq, xolislik bilan o'rganib chiqib, Madiyorning yolg'iz farzandligi, onasi yagona boquvchiligi, shuningdek, jabrlanuvchilarga yetkazilgan moddiy zararining qoplanganligi hisobga olinib, aybdorga 3 yil-u 9 oy 16 kun muddatga ozodlikni cheklash jazosi tayinladi.

Umr yo'ldoshining vafotidan so'ng yolg'iz o'g'lini kamolga yetkazgan ona farzandini bag'riga bosganicha, uzoq vaqt ko'z yoshini tiya olmadi. U boshpanasiz qolgan bo'lsa-da, shu topda o'g'lining qamalmaganiga shukr qilardi...

**Mahliyo XOLOVA,**  
o'z muxbirimiz.

Navoiy viloyati.

JINOYAT MUHOKAMASI

## CHAVANDOZNING QASOSI qimmatga tushdi

Forish tumanining chekka «Qizilqum» mahallasida istiqomat qiladigan Sh.Ch. ko'pkari berib, el duosini olishni niyat qilgandi. Ammo yaxshi maqsadda boshlangan tadbir xunuk nihoyalandi. Chunonchi, uloq yakunida qizilqumlik X.S. ot ustida turib, «Uchma» mahallasida istiqomat qiluvchi O.Q.ning boshiga 2–3 marta qamchi bilan urdi. Kelishmovchilikka zo'ravon hamda jabrlanuvchining ukalari aralashib, «yaxshigina» mushtlashuv yuz berdi.

Natijada mehmonlardan birining burni sinib, qulog'i yirtildi, yana birining boshi yorildi. Qisqasi, 6 kishi shifoxonada tibbiy yordam olgan. Ushbu holat yuzasidan o'tkazilgan tergovga qadar surishtiruv davomida janjalni boshlagan X.S. bir muddat ilgari o'zining O.Q. tomonidan shu tarzda «siylangan»ligini, qamchini o'ch olish maqsadida ko'targanligini bildirdi.

Agarda kelishmovchilik qonuniy yo'l bilan hal etilganida, qasos emas, murosa yo'li tanlanganida, hech kim aziyat chekmasdi. Endi bir necha kishi jinoiy javobgarlikka tortiladi. Ushbu fikr-mulohazalar «Qizilqum» mahalla aholisi va sektorlar mas'ullari ishtirokida uyushtirilgan jinoyat muhokamasi avvalida bayon qilindi.

Yig'ilish davomida viloyat IIB JXX JTSB boshlig'i, podpolkovnik Hamza Salayev va Huquqbuzarliklar profilaktikasi boshqarmasi boshlig'i, podpolkovnik Mirzabek Ro'ziqulov tumanda yuz bergan jinoyatlar hamda huquqbuzarliklarning oldini olish va jamoat tartibini saqlash borasida qilinayotgan ishlar haqida to'xtaldi.

O'z navbatida, yig'ilganlarga ko'pchilik to'planadigan musobaqa va marosimlarni o'tkazish tartiblari tushuntirildi. Bundan tashqari, yig'ilish qatnashchilariga kiberjinoyatlar, firibgarlik hamda o'g'riliklardan himoyalanihga oid tavsiyalar berildi.

**Alijon ABDUSATTOROV,**  
o'z muxbirimiz.

Jizzax viloyati.



BAHS

## O'TMISH, BUGUN YOKI KELAJAK?



Kunlardan birida uch do'st – o'tmish, bugun va kelajakning qay biri inson uchun ahamiyatli ekani borasida bahslashib qolishibdi. Ulardan biri:

– Har kim ayni damda erishgan yutuqlari uchun o'tmishga burchli. Masalan, men ham barcha bilim va tajribalarimni o'tmish sharofati tufayli orttirganman, – debdi.

– Bu gapingga qo'shilmayman, – e'tiroz bildiribdi ikkinchisi. – Insonni kelajak takomillashtiradi, ya'ni bugun qanday malaka va ko'nikmaga ega bo'lma, yanada yangilarini – kelajak uchun zarur bo'ladiganini o'rganib borishingga to'g'ri keladi.


Masalan, mening barcha xatti-harakatlarim o'zim istagan inson bo'lish yo'lidagi istak va intilishlarim bilan belgilanadi.

– Bir narsani e'tibordan chetda qoldirdingiz, – aralashibdi uchinchisi. – O'tmish va kelajak faqat o'y-xayolalarda mavjud. O'tmish ortda qolgan. Kelajak esa hali kirib kelmagan. Biroq har qanday ish-harakat bugun, ayni damda amalga oshiriladi. Faqat bugungi kun ertangisi qanday bo'lishini belgilaydi. Shunday ekan, ko'p narsa bog'liq bo'lgan hozirgi onni qadrlash, undan unumli foydalanish maqsadga muvofiqdir!

## Женщины в погонах

# «МОЯ ПРОФЕССИЯ – СЛЕДОВАТЕЛЬ, И Я ЭТИМ ГОРЖУСЬ»

Так ответила на вопрос о выборе жизненного пути подполковник Надежда Мухамеджанова, следователь по особо важным делам аналитического отдела Следственного управления при ГУВД города Ташкента.



Определиться с выбором профессии Надежде было непросто. Однако в 1999 году она сделала решающий шаг, поступив в Академию МВД Республики Узбекистан. С тех пор ее жизнь связана с правоохранительной сферой.

Подполковник Н. Мухамеджанова считает, что в работе следователя должны главенствовать принципы законности, справедливости, честности. Эти ценности сопровождают ее на протяжении всей карьеры. Коллеги отзываются о ней как о высококлассном

специалисте с обостренным чувством ответственности. Твердый характер, умение находить правильные решения в сложных ситуациях – залог ее успеха.

После напряженного рабочего дня Надежда с радостью спешит домой, где ее ждут муж и трое дочерей. В кругу семьи она черпает новые силы.

Профессионализм, жизненная мудрость подполковника Н. Мухамеджановой вдохновляет многих девушек, мечтающих связать жизнь с правоохранительной деятельностью.

## Молодежь – наше будущее

# ПОТЕНЦИАЛ ДЛЯ ОБРАЗЦОВОЙ СЛУЖБЫ

В рядах специалистов органов внутренних дел – молодые офицеры. Они несут службу в различных отраслевых и территориальных подразделениях, обеспечивая общественную безопасность. Среди них – старший следователь отделения по борьбе с преступлениями в сфере информационных технологий УКД ОВД Юнусабадского района города Ташкента старший лейтенант Саиднумонхон Ахроров.



После завершения Академии МВД он был направлен в следственный отдел при УКД ОВД района. Тонкости профессии постигал под руководством подполковников Шерзода Карабаева, Низомиддина Икрамова, майора Хамида Курбанова, которых считает своими наставниками.

На счету старшего лейтенанта немало успешно расследованных уголовных дел. Недавно в его производстве было дело, возбужденное в отношении Э. Б. и трех поделельников по факту незаконного открытия на имена рабочих, прибывших в столицу, онлайн-кредитов. По данному делу в полном объеме осуществлены процессуальные действия, оно направлено в суд.

– Саиднумонхон Ахроров обладает значимыми для нашей службы качествами – целеустремленностью, внимательностью к деталям, – подчеркивает начальник СО подполковник Низомиддин Икрамов. – В сотруднике заложен потенциал для дальнейшей образцовой службы.

**Радик ТУМΠΑРОВ,**  
соб. корр.

## Мастер своего дела

# НУЖНА ОСОБАЯ ЗАКАЛКА

Рядовой Шухратбек Эшкузиев в органах внутренних дел более 16 лет. Службу начинал сотрудником-водителем 1-го отряда батальона патрульно-постовой службы УВД Андижанской области. Потом был инспектором ДПС УБДД. С прошлого года рядовой Ш. Эшкузиев конвоир межрайонного конвойного отряда.



– С юности считал, что люди в погонах занимаются настоящим мужским делом, – говорит рядовой Ш. Эшкузиев. – Выбирал между профессией военного и службой в органах внутренних дел. Остановился на втором варианте. Для меня главное – добросовестное исполнение должностных обязанностей,

не перекаладывать ответственность.

Служба в органах внутренних дел требует особой закалки. Но если человек подготовлен, знает, к чему стремится, то любые трудности сможет преодолеть.

**Борис КЛЕЙМАН,**  
соб. корр.

Андижанская область.

FARZANDIM – G'URURIM

## E'TIBORDAN BOSHIM KO'KKA YETDI

O'g'lim Bekmamat Rajabov 14 yildan buyon ichki ishlar organlari tizimida xizmat qilib kelmoqda. Hozirda Navoiy viloyati IIB Vaziyatlar markazi xodimi. Gapning rosti, bu sohada har kim ham ishlay olmaskan. Chunki yarim tunmi, bayram kunimi yoki boshqa paytmi, doim xizmatga shay holda turish kerak. Har xil vaziyat bo'ladi, el tinchligi va osoyishtaligini ta'minlashdek mas'uliyatli va sharafli kasb nomini oqlash uchun tinimsiz mehnat qilishga to'g'ri keladi.



Yana bir jihat. Oilaviy shart-sharoiti, ijtimoiy ahvoli doimo diqqat e'tiborda ekanini soha xodimlarini yanada shijoat bilan xizmat qilishga turtki bo'larkan. Ota-ona sifatida rahbarlari biz bilan yaqindan suhbatlar o'tkazadi, o'g'limning oilaviy sharoiti bilan qiziqadi. To'g'ri-da, uyi, bola-chaqasi tinch bo'lgan xodimning ishida unum va baraka bo'ladi.

O'g'lim ancha yillardan beri ijarada, yoki uzoq bo'lsa ham, hovlimizdan ish joyiga qatnab kelayotgan edi. Oilaviy shart-sharoiti inobatga olinib, sentabr oyida o'g'limga Navoiy shahri markazida joylashgan ko'p qavatli uydan 2 xonali xonadon imtiyozli

kredit asosida berildi. Ahamiyatli, 20 yil muddatga berilgan ushbu uyning boshlang'ich to'lovi vazirlik tomonidan to'lab berildi.

Hozir o'g'lim turmush o'rtog'i va uch nafar farzandi bilan shu uyda shodan yashayapti. Ayniqsa, nabiralarning quvonchi behad cheksiz. Demakki, yurt tinchligi va osoyishtaligi yo'lida xizmat qilgan har bir inson davlat va Prezident e'tiborida. Buning uchun Yurtboshimizga, vazirlik rahbariyatiga oilamiz nomidan minnatdorlik bildiraman.

**Ramazon RAJABOV,**  
Navoiy innovatsiyalar  
universiteti Axborot-resurs  
markazi rahbari.

DADAM – FAXRIM

## SIZGA O'XSHAGIM KELAR

**Kechagidek yodimda. Bir kuni dadam meni ishxonasiga olib bordi. Mikroskop va boshqa turli asbob-uskunalar to'la xonaga kirishimiz bilan u oppoq xalat kiyib oldi. Shunda men dadamni bu yerda shifokor bo'lib ishlasa kerak, deb o'yladim. O'zidan so'ragandim, jilmaygancha yo'q, dedi. Keyin ekspert-kriminalist bo'lib ishlashini, jinoyatchilarning izini topishda uning xizmati o'ta zarur ekanini tushuntirib berdi...**

Dadam, podpolkovnik Abduvahob Abdumavlonov Toshkent davlat tibbiyot institutini tamomlagach, Yangiyer shahar IIB EKBda, chorak asrdan beri bir joyda, bitta sohada xizmat qilmoqda. Yillar o'tib men ham shifokorlik kasbini tanladim. Hozir Guliston davlat universitetining tibbiyot fakultetida o'qiyman.

Biz, farzandlarning tarbiyasida padari buzrukvorimning o'rnini, mehnati, tarbiyasi juda katta o'rin tutgan. Doim unga o'xshashga, undan o'rnak olishga harakat qilganmiz. Ayniqsa, oilada mehribonligi, biz uchun jonini ham berishga tayyorligini ifodalashga so'z topolmayman. Qiyinchilikka tushib qolsam, doim suyanch bo'lgan.



Dadam o'z kasbiga o'ta fidoyi inson. Qahraton sovuqlarda, yarim kechalarda jinoyat joyini o'rganish uchun yo'lga otlanganiga ko'p guvoh bo'lganman. Ana shunday voqealardan birini yaxshi eslayman. To'qqizinchi sinfda o'qirdim. Yozning dam olish kunlaridan birida oilaviy dam olish uchun Zomingga borish rejalashtirildi. Sayohat

uchun qariyb ikki hafta tayyorgarlik ko'rildi. Dala hovli band qilindi. Bir kun oldin bozor-o'char qilindi.

Biz bu kunni necha oylardan beri intiqlik bilan kutgandik. O'sha kuni erta turdik. Lekin dadam uyda yo'q edi. Yarim kechada ishga chaqirib olishgandi. Chunki o'sha kuni shaharda mash'um qotillik sodir etilgan. Jinoyatchilarni topish

uchun butun shahar oyoqqa qalqan, dadamning yelkasiga katta mas'uliyat tushgandi. U jinoyatchilarni qoldirgan izlarini topishi, dalillar to'plashi zarur edi. Kechga yaqin dadam uyga kirib kelganida biz qovoq-tumshuq qilib kutib oldik. Bola edik-da!

U arazimizni ko'rib kulib yubordi. Keyin bizni bag'riga bosib hammasini obdan tushuntirdi. Insonning baxti o'zgalarning koriga yarashida ekanini, dam olish qochmasligini, agar jinoyatchilarning payi qirqilmasa, hayotda adolat yo'qolishini uqtirdi.

Ma'lum bo'lishicha, o'sha kuni jinoyatchilarni Qozog'iston chegarasidan topib kelishgan. Ularni topishda dadam aniqlagan barmoq izlari, boshqa daliliy ashyolar muhim ahamiyatga ega bo'lgan.

O'sha kuni dadam charchab kelgan bo'lsa-da, qo'lbola osh damladi. Kechki dasturxon ustida hammamizni kuldirib, ko'nglimizni xushnud etdi.

Talabalikning oltin davrini o'tkazar ekanman, endilikda yaxshi va yomonni ancha-muncha ajratib qoldim. Angladimki, dadam – mening faxrim! Uning osoyishtalik yo'lida fidoyilarcha kurashayotgani, halolligi, el orasida obro'-e'tiborga egaligi qalbimni cheksiz g'ururga to'ldiradi. Men ham kelgusida mana shunday yo'ldan ketishni dilimga tukkanman.

**Kamronbek ABDUVAHOBOV,**  
Guliston davlat universiteti  
talabasi.

Sirdaryo viloyati.

## SOHAMIZ FIDOYILARI

## G'ALABA — ERTANGI KUNGA ISHONCH

### – deydi kichik serjant, xalqaro toifadagi sport ustasi Ne'mat Yoqubov

**Viloyat IIB Tezkor vazifalarni bajaruvchi safarbar otryadida xizmat qilayotgan kichik serjant Ne'mat Yoqubov fidoyi, vatanparvar yosh xodimlardan biridir.**

Samarqandda tug'ilib o'sgan lavhamiz qahramoni maktab davridanoq sportning sambo turi bo'yicha yaxshi natijalarga erishdi.

2017-yil Sochida bo'lib o'tgan jahon chempionatidagi ilk ishtirokida 80 ta mamlakat sportchilari orasidagi 30 nafar raqibni mag'lubiyatga uchratib finalga chiqqan va faxrli ikkinchi o'rinni egallagan.

Iroda va tirishqoqlikni kundalik hayot tarziga aylantirgan qahramonimiz turli turnirlarda, xususan, Hindiston, Rossiya, Belarusda o'tkazilgan xalqaro chempionatlar, Osiyo chempionatlari, ichki ishlar organlari xodimlari o'rtasida o'tkazilgan musobaqalarda ko'plab sovrinli o'rinlarni va tabiiyki, aksariyat hollarda, faqat birinchi o'rinlarni qo'lga kiritdi.

– Hozirda 2025-yil yanvar oyida bo'lib o'tadigan Osiyo chempionati saralash turniriga tayyorgarlik ko'ryapman, – deydi u. – Sport va jangovar sambo chinakam erkaklar sporti, deb hisoblayman. Bundan tashqari, bu sport turi – nafaqat kuchni, balki abjirlik, muvofiqlashtirish, tezlik va chidamlilikni ham rivojlantiradi. Ushbu fazilatlarining barchasi nafaqat ishda, balki kundalik hayotda ham qo'l keladi.

**Zamira BOLTAYEVA,**  
o'z muxbirimiz.  
Samarqand viloyati.



## BARCHA QIYINCHILIKLAR UNUT BO'LADI



**Ichki ishlar organlarida shunday xizmat borki, bu yerda faoliyat yuritayotgan xodim zamonaviy axborot texnologiyalarini puxta egallagan bo'lishi lozim. Katta leytenant Elmurod Turg'unov ana shunday tor mutaxassislik bo'yicha zarur bilim va malakaga ega xodim.**

Yoshligidan radiotexnika va kompyuterga qiziqqan Elmurod sohani chuqur egallash maqsadida Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetiga kirib o'qidi. Oliygo'hnini tamomlaganidan so'ng maktabda informatikadan yosh avlodga ta'lim berdi. 2021-yildan esa Toshkent viloyati Toshkent tumani IIB Axborot texnologiyalarini joriy etish guruhi katta mutaxassisi sifatida faoliyat yuritib kelmoqda.

Hamkasbi, Zangiota tumani IIB Axborot texnologiyalarini joriy etish guruhi muhandisi Serik Mambetov bilan 4-mintaqa muvofiqlashtirish markaziga qarashli 6 ta tuman IIBdagi videokuzatuv kameralarida nosozlik kuzatilsa, kompyuterlarning dasturiy ta'minoti ishdan chiqsa va aloqa vositalari buzilib qolsa, muammoni tezda bartaraf etishga doim shay.

Katta leytenant E. Turg'unov sohani chuqur o'zlashtirishda ustoz – viloyat IIBB Axborot texnologiyalari, aloqa va axborotni himoyalash bo'limi boshlig'i, kapitan Temur Hasanboyevdan minnatdor.

– Ushbu yo'nalishda faoliyat yuritish, chetdan qaraganda murakkab va qiyindek tuyulishi mumkin, – deydi lavhamiz qahramoni. – Lekin nosozliklarni bartaraf etganingizda yoki xodimlarning kompyuteri va radioaloqa vositasi buzilganida, uni soz holga keltirganingizda bildirgan minnatdorligidan so'ng barcha charchoq hamda qiyinchiliklar unut bo'ladi. O'sha paytdagi hissiyotni hech narsa bilan almashtirib bo'lmaydi.

**Sarvar SOBIROV,**  
o'z muxbirimiz.

Toshkent viloyati.

## CHEGARA HUDUDLARDA

**Katta leytenant Muhriddin Mo'yidinov is So'x tumanining Qirg'iz Respublikasi bilan chegaradosh «Chashma» mahallasi-da profilaktika katta inspektori.**

Asli so'xlik bu yigit Samarqand davlat universitetini tamomlagach, ma'lum muddat kasbhunar kollejida faoliyat ko'rsatdi. 2021-yildan beri IIOda xizmat qilyapti.

Muhriddin faoliyat olib borayotgan «Chashma» mahallasini Botken viloyati Qadamjoy tumanining «Chachme» ovuli bilan bitta ariq ajratib turadi. Ikki qishloq o'rtasida qadimiy «Chashma» bulog'i joylashgan bo'lib, So'xga qadam ranjida qilgan inson borki ushbu mo'jizaviy buloqni bir marta bo'lsa ham ko'rgani boradi. Shu bois buloq atrofi doim mahalliy aholi va sayyohlar bilan gavjum.

Yangi O'zbekistonda olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar jarayonida So'x markazidan tortib, eng olisda joylashgan 3528 nafardan ziyod aholi yashaydigan «Chashma» mahallasi-gacha zamonaviy va ayni paytda milliy memoriy qiyofa kasb etayotgan yangi inshootlar, bog' va ziyobonlar, keng-ravon yo'llar, xizmat ko'rsatish hamda servis shoxobchalari, sanoat korxonalarini barpo etilgani tumanga o'zgacha chiroy va fayz baxsh etayotir.

– Ikki qardosh davlat rahbarlarining siyosiy irodasi tufayli chegara postlari ochilib, o'zaro hamjihatlikka asoslangan do'stona aloqalar yo'lga qo'yilgach, bizning mahalla va qo'shni «Chachme» ovuli o'rtasidagi qo'shnichilik rish-

talari yanada mustahkamlandi, – deydi katta leytenant Muhriddin Mo'yidinov. – Azaldan o'zbek va qirg'iz qishlog'ining odamlari bir ariqdan suv ichib, ahil-inoq yashashadi. To'y va ma'arakalarda bir-birini yo'qlab, qo'llab-quvvatlab kelishadi.

## «CHASHMA»NING JONSARAK POSBONI



Katta inspektorning qayd etishicha, mahalla yettiligi bilan birgalikda «fuqarobay» va «xonadonbay» usulda ish olib borilib, har kuni o'nlab oilalarning yashash tarzi, muammolari

manzilli o'rganilmoqda. Profilaktik nazoratdagi shaxslar bilan alohida, individual ish olib boriladi. Mahalla faollari bilan o'zaro hamjihatlikda tashkil etilayotgan ishlar natijasida aholi orasida oila-turmush doirasidagi jinoyat va huquqbuzarliklar, ajralishlar deyarli qayd etilgani yo'q. Mahalla hududidagi maktab va bolalar bog'chasida huquqiy targ'ibot tadbirlari muntazam o'tkazib boriladi.

Shu o'rinda aytish zarurki, So'xda «Chashma» bulog'idan tashqari, tabarruk qadamjolar, obidalar, madaniy meros obyektlari juda ko'p. «Hazrat Ali», «Sulton G'aznaviy» ziyoratgohi, «Sulung'ur g'ori», «Xo'jayli Murod» kabi madaniy yodgorliklar hamisha mahalliy aholi va xorijiy sayyohlar e'tiborini tortib kelgan. Tumanning sayyohlik xaritasida «Surati tog'i» muhim o'rin tutishi aniq. Sir-sinatga to'la tarixiy manzilning silliq tog' toshlari oynadek tovlanadi. Zavqli tomosha go'zal va betakror tabiatning ko'z ilg'amas go'zalliklarini ilg'ab olishga undaydi...

So'xning turizm salohiyatini yuksaltirish maqsadida «Farg'ona–So'x–Farg'ona» yo'nalishi bo'ylab transport va aviaqatnovlar yo'lga qo'yildi. Ayni jihatlarni inobatga olib, 50 ga yaqin uy mehmonxonalarini qurildi. Hozirda tumanda ekoturizm, agroturizm, tibbiyot turizmini rivojlantirish uchun izchil sa'y-harakatlar davom etmoqda.

**Abduvosit SIDIQOV,**  
o'z muxbirimiz.

Farg'ona viloyati.



KASB FIDOYISI

## YO'L TANIGANNI EL TANIYDI

Ortda qolayotgan yil yoshga sekin, qariga tez o'tgandek tuyuladi. Bu muhim emas. Albatta, uning samarali o'tgani – birlamchi. Surxondaryo viloyati IIB Tezkor vazifalarni bajaruvchi safarbar otryadi II guruh katta mutaxassisi katta serjant Anvar Mnajitdinov ichki ishlar organlarida 17 yildan buyon xizmatda.



Bolaligidan sportning erkin kurash turi bilan shug'ullanib kelayotgan katta serjant 97+ kg vaznda O'zbekiston chempioni bo'lgan. Hozirda otryaddagi xodimlarga ham erkin kurash bo'yicha mashg'ulotlar o'tirapti.

– Xalqimizda ajoyib maqol bor: «Bilagi zo'r birni yiqar, bilimi zo'r mingni». Haq gap. Ammo bilak ham, bilim ham zo'r bo'lsa-chi? Ana endi bu odamzodning orzusi bo'lgan barkamollik belgisi hisoblanadi. Har tomonlama barkamol inson esa jamiyatning ildam rivojlanishi, jahon miqyosida tan olinishi, qolaversa, o'ziday komil avlodlarning tarbiyalanishida bekamu ko'st xizmat qila oladi. Men shogirdlarimga mana shu nuqtai nazarni uqtirishga harakat qilaman.

Lavhamiz qahramoni 2 nafar farzandning otasi. O'g'li Begzod ham o'ziga o'xshagan sportchi. Hozirda jismoniy madaniyat yo'nalishi bo'yicha oliygohda tahsil olmoqda.

Qizi Shahrizoda hali bog'cha tarbiyalanuvchisi. Turmush o'rtog'i bank xodimi.

– Har kuni erta sahardan onam bilan qo'ng'iroqlashgach, xizmat vazifamga kirishaman, – deydi Anvar. – Ularning duosini olib, nasihatlariga quloq tutaman. Hayotda qiyin vaziyatlarda onam hamisha menga yaxshi maslahatgo'y bo'ladi. Doim halol bo'lishga, faqat sportda emas, balki hayotda ham yaxshilik qilish borasida chempion bo'lish kerakligini uqtiradilar.

Odatda sportda chempion bo'lganlarga havas qilamiz. Bu ham yaxshi, biroq qahramonimiz aytganidek, asli hayotda o'z burchimizni sadoqat bilan ado etish, insoniylik kabi xislatlarni egallashda chempionlikka intilsak, ko'proq natijalarga erishgan bo'lardik.

**Feruz RAHMONQULOVA,**  
o'z muxbirimiz.

Surxondaryo viloyati.

GIYOHVANDLIK – ASR VABOSI

## «TUZOQ»DAGI NOPOK KIMSALAR

Viloyatda belgilangan reja asosida o'tkazilayotgan tadbirlarda mavzuga oid videoroliklar namoyish qilinib, targ'ibot materiallaridan samarali foydalanilyapti. Qonunbuzarlarga nisbatan tegishli choralar ko'riyapti. Hamkor tashkilotlar hamda huquqni muhofaza qiluvchi boshqa organlar xodimlari bilan hamjihatlikda amalga oshirilayotgan bu kabi sa'y-harakatlarga qaramasdan, hamon ba'zi kimsalarning narkotik hamda psixotrop moddalar bilan shug'ullanish holatlari qayd etilmoqda.



Joriy yilning 12-noyabr kuni o'tkazilgan maxsus tezkor tadbirlar davomida xivalik E.Sotim (ism-shariflar o'zgartirildi) o'zining yashash xonadonida 1,88 kilogramm marixuana giyohvandlik o'simligini qonunga xilof ravishda saqlab qo'yganligi aniqlandi. Shuningdek, 19-noyabr kuni Xonqa tumanida yashovchi I. Po'lat yashash xonadonining tom qismida jami og'irligi 2 kilogramm bo'lgan marixuana giyohvandlik vositasini sotish maqsadida yashirib qo'yganligi fosh etildi. Navbatdagi tezkor tadbirda Xiva tumanida istiqomat qiluvchi Sh.Farhodning yashash uyida 2,65 kilogramm marixuana hamda 3,7 gramm gashish giyohvandlik moddalari borligi ma'lum bo'ldi.

Qo'shko'pir tumani hududida o'tkazilgan tezkor tadbirda esa M.Maqsud 8,23 gramm heroin giyohvandlik vositasini 8 million so'mga sotgan paytida ashyoviy dalillar bilan qo'lga olindi. Urganch shahrida o'tkazilgan tezkor tadbir davomida urganchlik

T. Farhod o'zining yashash xonadonida tadbirga jalb qilingan shartli xaridorga og'irligi 1,05 gramm bo'lgan gashish giyohvandlik vositasini sotgan vaqtda ashyoviy dalillar bilan ushlandi. Tezkor tadbir davomida ushbu fuqaroning yashash uyi hamda yordamchi xo'jaligi belgilangan tartibda xolislar ishtirokida ko'zdan kechirilganda, xonadondagi muzlatkichda jami og'irligi 14,05 gramm bo'lgan giyohvandlik vositasi borligi aniqlandi.

Joriy yilning o'tgan davri mobaynida giyohvandlik bilan bog'liq bo'lgan 393 ta holat aniqlanib, gumonlanuvchilardan jami 77 kilogramm 241 gramm turli xildagi narkotik hamda psixotrop moddalar ashyoviy dalil tariqasida olindi. Qonunbuzarlarga nisbatan Jinoyat kodeksining tegishli moddalari bilan jinoyat ishi qo'zg'atilib, qonun ustuvorligi ta'minlandi.

**Xudoybergan JABBOROV,**  
o'z muxbirimiz.

Xorazm viloyati.

### BOLAJONLAR BURCHAGI

### 5 TA FARQNI TOPING



## SALOMATLIK SABOQLARI

# VAZN TASHLASH UCHUN YETTI QOIDA

**Taom iste'molida shoshilmaslik, muntazamlik va me'yor saqlay bilish tananing ko'rkam va salomat bo'lishini ta'minlashga xizmat qiluvchi uch jihatdir. Bundan tashqari, taomnomada yog'li, sho'r va xamirli taomlarni, gazli ichimliklarni kamaytirish, meva, sabzavot va ko'katlar miqdorini ko'paytirish ozish uchun qo'yilgan samarali qadamdir.**

Ma'lumki, yosh o'tgan sayin metabolizm sekinlashadi, mushak massasi ulushi kamayadi va natijada ortiqcha vazn to'planib, ozish tobora qiyin kechadi. Agar yuqoridagi tavsiyalardan tashqari, quyidagi oddiy qoidalarga amal qilinsa, har qanday yoshda ham, semirishning oldini olish mumkin.

**Oqsilli mahsulotlar yeyishga harakat qiling.** Chunki oqsil to'qlik hissini saqlashga yordam beradi va shu orqali ortiqcha iste'molga o'rin qoldirmaydi. Bu bir oy ichida osongina ozishga ko'maklashadigan eng foydali tavsiyadir.

**Organizmni ko'proq D vitamini bilan ta'minlang.** Ushbu o'ta foydali vitaminning manbai sut mahsulotlari, yog'li baliq, tuxum va dengiz mahsulotlari hamda quyosh



nuri bo'lishi mumkin. D vitamini inson tanasi uchun asosiy foydali modda bo'lib, metabolizm tezligi to'g'ridan-to'g'ri unga bog'liq. Agar u taomnomangizda yetarli miqdorda bo'lmasa, modda almashinuvi ham muqarrar sekinlashadi.

**Sutli mahsulotlar iste'molini ko'paytiring.** Ma'lumki, kalsiy yetishmovchiligi modda almashinuvi tezligiga salbiy ta'sir qiladi. Har kuni tvorog, yogurt yeyishni, sut ichishni odat qiling. Aynan sut yog'lari ortiqcha kaloriyalarni energiya ko'rinishida qayta ishlanishiga yordam beradi, shuningdek, boshqa mahsulotlar tarkibida kelib tushadigan zararli yog'lardan himoya qiladi.

**Qahvali ichimliklar me'yorini saqlang.** Kuniga bir-ikki finjon qahva ichish nafaqat salomatlik, balki qomat uchun ham foydali: kofein moddalar almashinuvi yaxshilashga yordam berib, odam organizmida hatto hordiq chog'ida ham kaloriyalar parchalanishi davom etadi. Lekin bu jihatlar faqat qora qahva, ya'ni shakar va sut qo'shilmagan ko'rinishdagi ichimlik uchun xos. Shakar



miqdori ko'p qahvali ichimlikda xuddi katta shirinlik bo'lagida bo'lgani kabi kaloriya bisyor bo'lib, bu vazn ortishiga yo'l ochadi. Bundan tashqari u qonda qand miqdori keskin oshishi va salomatlik yomonlashishiga sabab bo'lishi mumkin.

**Ko'proq suv iching.** Ovqat tanovulidan yarim soat oldin ichilgan 500 ml suv inson ochligini qondiradi, kamroq taomlanishga, natijada yanada semirmaslikka va avval yig'ilgan vaznni yo'qotishga sabab bo'ladi. Suv bilan vazn yo'qotish usulining afzalligi shundaki, u oddiy va bepul. Har bir inson o'zining sog'ligiga xavf tug'dirmaydigan tarzda bu usulni qo'llashi mumkin.

**Stress holatida o'zingizni qo'lga olishni o'rganing.** Ruhiiy iztirob paytida qonga so'riladigan kortizol gormoni hazm jarayoni va moddalar almashinuviga ta'sir ko'rsatadi. Odam stressni qanchalik uzoq his etsa, mahsulotlar shuncha ko'p zararli shaklda hazm bo'ladi va metabolizm shunchalik sekin ishlaydi. Tinchlanish, xotirjam tortish uchun o'z uslubingizni shakllantiring va buni amalga qo'llang. Negaki, stress nafaqat vazn ortishiga olib keladi, balki salomatlik uchun juda zararlidir.

**Sport bilan shug'ullaning.** Buning uchun sport zaliga yoki basseynga qatnash shart emas.



Sog'liq uchun foydali mashqlarni uy sharoitida, tabiat qo'ynida va hatto ish joyida ham bajarish mumkin. Shunchaki bunga qunt qilib, alohida vaqt ajratish va muntazam amalga oshirish yetarli.

**Gulchehra AZIMOVA**  
tayyorladi.

## Здоровье

# ДИЕТА ПО БИРХЕР-БЕННЕРУ

**Доктор Бирхер-Беннер делит продукты на три категории:**

продукты высокой питательной ценности: зеленые листья, плоды, овощи, фрукты, орехи и т.д.;

продукты меньшей питательной ценности, содержащие сниженное количество солнечной энергии: молоко и яйца;

продукты незначительной питательной ценности: мясо и мясные продукты, белый хлеб, белая мука, сваренные в большом количестве воды овощи и консервированные продукты и сладости.

### Принципы

**Преимущественное употребление растительных продуктов** – лучших поставщиков солнечной энергии, витаминов, гормонов, ферментов, минеральных солей и других полезных для организма веществ.

**Употребление большей части продуктов в сыром виде.** Вареная пища бедна солнечной энергией, в ней уменьшено или денатурировано содержание витаминов, минеральных солей, белка и других веществ. Чем дольше длится тепловая обработка продуктов, тем ниже их каче-



ство и пригодность для питания. Особенно вредны неоднократно подогреваемые приготовленные блюда. Нельзя варить овощи в большом количестве воды, которая потом выливается, хотя в ней остается много витаминов и минеральных солей. Ограничивая употребление сырой пищи, человек испытывает чувство голода. Для его подавления обычно используются вредные для здоровья

стимуляторы – поваренная соль, чай, кофе, шоколад, соусы, уксус и т.д. Все это ведет к нарушению пищеварения и развитию хронических заболеваний.

**Использование продуктов в их первозданном природном виде.** Очищенные при переработке продукты (мука тонкого помола,



манная крупа, шлифованный рис и т.д.) теряют присущие цельному зерну полезные свойства, так как ценная часть зерна уходит в отруби. То же самое относится к белому (рафинированному) сахару. Поэтому белый хлеб следует заменить черным, а белый сахар – неочищенным тростниковым.

**Составление пищевого рациона с преобладанием щелочей, а не кислот.** Щелочную направленность питания обеспечивают фрукты, ягоды, овощи, листья и стебли растений. В зернах злаков, бобовых и семенах преобладают кислоты. Однако в этих продуктах их меньше, чем в мясе животных и птиц, рыбе, яйцах.

**Отказ от традиционных заблуждений.** Только привычки приводят человека к мысли, будто горячая пища необходима для здоровья. В действительности хорошее кровообращение и тепло – это результат сгорания сырых продуктов, попадающих внутрь организма.

**Тщательное и медленное пережевывание пищи.** При плохом пережевывании растительных продуктов возникают расстройства пищеварения.

**Гузаль ФАЙЗИЕВА,**  
подполковник.

**Максимилиан Оскар Бирхер-Беннер (1867 – 1939)** – швейцарский врач, специалист в области диетологии. С 1897 года в собственном санатории «Жизненная сила» в Цюрихе применял сбалансированную диету, состоящую из овощей и фруктов, для оздоровления пациентов. Самым известным его изобретением считаются мюсли. Первый заговорил не только о пользе овощей и фруктов, но и об энергетической ценности продукта.



Праздничный рассказ

# НОВОГОДНИЙ ПАТРУЛЬ

**Сержант Анвар Абдуллаев был человеком обязательным. Десятилетняя служба в патрульно-постовой службе научила его, что в праздники порядок особенно важен: город должен встретить Новый год спокойно, а люди – с радостью.**

Его напарником в этот раз был молодой сотрудник – рядовой Ильёс Ибрагимов. Тот с энтузиазмом вышел в свою первую вечернюю новогоднюю смену.

– А что обычно в такой день происходит? – спросил он, пока они патрулировали заснеженные улицы.

– Все что угодно. Но главное – не паниковать и помогать людям. Новый год – время добрых чудес, – ответил Абдуллаев, подмигнув.

... Сначала вызовы были обычными: где-то соседи поспорили о громкости включенной музыки, где-то нужно было напомнить мальчишкам об опасности запуска фейерверка во дворе. Но ближе к часам шести поступил срочный вызов: «Ребенок потерялся в городском парке».

Когда патруль прибыл на место, встревоженные родители с трудом объяснили, что их сын Даврон, увлекшись каруселями, внезапно исчез. В парке шумно, люди празднуют, бегают дети, и найти мальчика в такой суете было непросто.

– Спокойно, сейчас найдем, – уверенно сказал Абдуллаев.

Во взаимодействии с коллегами быстро организовали поиск. Ильёс пошел к центральной сцене, а Анвар Абдуллаев отправился проверять самые укромные уголки парка. На



ходу он осматривал аллеи, как охотник, внимательно слушающая звуки вокруг.

Через несколько минут сержант услышал тихий плач. На краю аллеи, на скамейке сидел маленький мальчик в синей шапке.

– Даврон? – мягко окликнул его Абдуллаев.

Мальчик поднял глаза, полные слез.

– Я заблудился... Я не знаю, где мама и папа...

– Все в порядке, дружище. Сейчас я тебя к ним отведу, – сказал сотрудник, осторожно подхватывая ребенка на руки. Мальчик успокоился, чувствуя себя в безопасности.

... Когда Абдуллаев привел его к родителям, те чуть не расплакались от радости, обнимая сына.

– Спасибо вам огромное! – благодарила мать, дрожа от волнения.

– Это наша работа, – ответил сержант. – Главное, чтобы теперь вы все были вместе.

После этого смена прошла спокойно. Уже возвращаясь на базу, рядовой Ильёс Ибрагимов, обращаясь к старшему коллеге, произнес:

– Вы будто знали, где искать мальчика.

– Это чутье, – улыбнулся Абдуллаев. – А может, Новый год помогает.

Анвар Абдуллаев бросил взгляд на тихий город и подумал, что год начинается правильно: с помощи тем, кто в этом нуждается.

Юлия КИМ.

## СКАНВОРД

Костюм для нима	Посев, засеваемый осенью	Древнерусский недруг	Питомец муз и вдохновенья	Ограда	Финский дефицит
Что такое взброс?	Город	Парфюмерная участь судьи	Рынок в Одессе, где раки по три	Способ добычи знаний	Невод с уловом после закидки
Голова на жаргоне	Кто пел про «серый Бумер»?	«Строган» плотника	Граница сварки	Имя трактора из Простоквашино	Помощник на «Беде»
«Не садись на ...!»	Прения	Зеленый в банке	Зимняя причуда на стекле	Жена барина в Польше	Молодая овца
Светоч в руке статуи Свободы	Ухват и жук – одним словом	Струнная лебедка	Дитя для тяти	Выжигание сухой травы	Вход в него стережет Цербер
Ловец водоплавающих	Лучший повар	Канавка в стволе оружия	Буква «В» в ОВИРе	Космодельная	«Божья» способность
			Бра		Восхваление в стихах
		Парень, привозивший кефаль			

## MUNAJJIMLAR BASHORATI

(30-dekabr dan 5-yanvargacha)



**Qo'y.** Bu hafta salomatlik bilan bog'liq ba'zi muammolar yuzaga kelishi mumkin. Buning oldini olish uchun ham aqliy, ham jismoniy mehnatni me'yorida oshirmaslikka urining. Ushbu davrda moliyaviy masalalarni imkon qadar ortga surib turing. Misol uchun, ishga oid tashvishlar biroz kutib turishi mumkin.



**Buzoq.** Ushbu davr biroz yengil tortish, organizmga dam berish uchun qulay palladir. O'z nasihat va maslahatlaringiz bilan sevimli va yaqin insonlarga xalaqit qilmay, vaqtincha chetdan kuzatuvchi, minnatdor tinglovchi va boshqalarning qobiliyatini qadrllovchi insonga aylaning.



**Egizaklar.** Maishiy masalalar bilan bog'liq ba'zi mayda-chuyda ko'ngilsizliklarni hisobga olmaganda, bu hafta davomida o'zingizni tamoman baxtli inson deb hisoblaysiz. Anchadan beri kutilgan orzu-niyatlar amalga oshishi mumkin. Ish faoliyatingizda ham ko'pgina yutuq va muvaffaqiyatlar kutilmoqda.



**Qisqichbaqa.** Sizni sertashvish va behalovat hafta kutmoqda. Ba'zida o'ylash imkoniyati qolmagan tang holatlar ham yuzaga kelishi mumkin. Bu hafta vaqtiniz ziq bo'lishiga qaramay, ko'p narsaga ulgurishingizga to'g'ri keladi. Ishlaringizni reja bilan bosqichma-bosqich amalga oshirishga harakat qiling.



**Arslon.** Bu hafta kasb-hunaringizga oid ishlar biroz to'xtab qolishi ehtimoli yuqori. Buni shunchaki vaqtinchalik tanaffus, kuch to'plab olish uchun qo'shimcha davr deb qabul qiling. Bu kunlar sog'liqqa alohida e'tibor qaratishni ham unutmang. Hayot yo'lingizni izga solish borasida chuqur mulohaza yuritishga harakat qiling.



**Parizod.** Sizdagi faollik sezilarli darajada ortib bormoqda. Bundan o'z manfaatingiz yo'lida foydalanib qolishni ham unutmang. Bu davrda har qanday masalalar osonlikcha o'z yechimini topadi. Shirinso'z bo'ling, shunda hech kim hech bir taklifingizni rad eta olmay, bajonidil yordam beradi.



**Tarozi.** Bu hafta taqdir siz uchun kutilmagan tuhfalar hozirlamoqda. Seshanba kundan ko'pchilikning e'tibori markazida bo'lishni boshlaysiz, shuning uchun tashqi ko'rinishni tartibga keltirish uchun alohida vaqt ajrating. Taqdiringizni o'zgartirib yuboruvchi yoki ish faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi insonlar bilan tanishuvlar kuzatilishi mumkin.



**Chayon.** Sizni bu hafta qiziqarli tanishuvlar va uchrashuvlar, maroqli sayr va safarlar kutmoqda. Omadni cho'chitib yubormaslik uchun hech narsani oldindan rejalashtirmang. Turli muammo va masalalarni ularning yuzaga kelishiga qarab hal qilib, «oqim bo'ylab suzish»ga harakat qiling.



**O'qotar.** Sizni his-hayajonga boy onlar va ruhan ta'sirlanish davri kutmoqda. Aslo taslim bo'lmang va hatto butun olam sizga qarshidek tuyulsa-da, umidsizlikka tushmang. Oqimga qarshi suzib, faqat ijobiy xislatlaringizni namoyon eting. Hafta so'ngiga borib barcha masalalar birin-ketin hal bo'lib, xotirjam dam olish imkoniyatiga ega bo'lasiz.




**Tog' echkisi.** Hayotning deyarli barcha jabhalarida vaziyatlar sizga qarshi bo'lishi mumkin. Asl istagingiz o'zingizga aniq ma'lum bo'lmaguncha, maqsad sari intilish befoyda. Odamlar bilan munosabat qilish borasidagi ba'zi qarashlaringizni qayta ko'rib chiqing.



**Qovg'a.** Bu hafta sizga yaxshi kayfiyat va ruhiy ko'tarinkilik hamrohlik qiladi. Ish joyingizda yangi-yangi yutuqlarga erishasiz. Asosiysi, o'zingizga bo'lgan ishonchni yo'qotmang, o'z nuqtai nazaringizni himoya qilishdan cho'chimang. Dam olish kunlari hushyor va kuzatuvchan bo'lish talab etiladi.



**Baliq.** Moliyaviy ishlarni yo'lga qo'yish va oilaviy byudjetni qayta ko'rib chiqish vaqti yetdi. Bu davrda daromadni orttirish uchun ajoyib imkoniyatlar mavjud. Anchadan beri kutib, axiri qo'l siltab qo'ygan joydan foydali va omadli taklif kelib tushishi mumkin. Har qanday ishga qo'l urishdan oldin har tomonlama o'ylab ko'rishni unutmang.



## ҚИШ МЎЪЖИЗАСИ...

О, она табиат, мўъжизакорсан,  
Ҳали кўрмаганман сенингдек соҳир.  
Осмондан ёғилган шу оппоқ қордан  
Лжиб манзаралар яратдинг, ахир.

Мен-ку мусаввирман, рангларни қориб,  
Ярата олгумдир рангин манзара.  
Лек таъзим айлайман қошингга бориб,  
Сен чизган сувратлар асладан сара.



Абу КЕНЖАЕВ,  
ўз мухбиримиз.

## СТЕРЕОТАСВИР

Ушбу тасвир  
остида сирли  
ҳажмий (3Д)  
расм яширинган.  
Топишга уриниб  
кўринг.



Расмга  
қараган пайтингиз  
нигоҳингизни  
бўш кўйинг. Расм  
чапланиб кетгач,  
нигоҳни узмасдан  
секинлик билан  
узоқлашинг.

## ҲУРМАТЛИ МУШТАРИЙЛАР!

Улкан орзулар ва эзгу мақсадлар билан бошланган йилимиз ҳам адоғига етиб борапти. Ҳаммамиз учун азиз ва ардоқли бўлган юртимиз равнақига ўз хиссасини қўшишга жазм этган барча жамоалар каби, биз ҳам йил давомида сизнинг фикратингиз ва фитратингизни бойитиш йўлида қалам тебратиб, нашрларимизда ижтимоий-сиёсий, маънавий ва маърифий, тарихий ва ҳуқуқий мақолаларни, кенг оммани мушоҳадага чорловчи мулоҳазаларни, қалбингизга қувонч бағишловчи ҳажвий ва юмористик асарларни, энг муҳими, ички ишлар органларининг фидойи ходимлари ҳақида ҳикоя қилувчи лавҳаларни ҳамда устоз фахрийлар тажрибасини тарғиб этувчи материалларни бериб боришга ҳаракат қилдик.

Умид қиламизки, кириб келаётган Янги йилда сиз эришадиган ютуқлар янада бардавом бўлади, ходимлар ва фахрийлар ҳаётида ҳамда уларнинг оилаларида қувончли воқеалар салмоғи ортади, ўзаро ҳамкорликда амалга оширадиган ишларимиз ҳам кўпаяди. Табиийки, буларнинг бари бизга илҳом бериб, янада шижоат билан ижод қилишга ундайди.

Азиз муштарийлар! Барчангизга кириб келаётган Янги йил омад, бахт ва шодмон кунларни олиб келсин!

ИИВ Бирлашган таҳририяти.

Янги йилдаги 1-сонимиз 3 январь куни чиқади.

### MUASSIS:

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI

Bosh muharrir –

polkovnik  
Bernora SADIKOVA

Bosh muharrir o'rinbosarlari –

podpolkovnik Azizjon FAYZIYEV  
kapitan Aziza BOHODIROVA

Mas'ul kotib –

Erkin SATTOROV

Navbatchilar –

Temir QURBONOV  
Radik TUMPAROV

Sahifalovchilar –

Zokir BOLTAYEV  
Ilhom JUMANOV  
Akbar BOLTAYEV

Fotomuxbirlar –

Abu KENJAYEV  
Ikrom HASANOV

### TELEFONLAR:

71-231-33-88;

Faks: 71-231-40-05.

Obuna masalalari bo'yicha:

71-231-38-74;

97-420-89-24

Web-site: [www.postda.uz](http://www.postda.uz)

E-mail: [info@postda.uz](mailto:info@postda.uz)

ISSN 2010-5355



Tahririyat hisob raqami  
h/r 23402000300100001010.

Bank kodi 00014.

O'zbekiston Respublikasi  
Iqtisodiyot va moliya  
vazirligi g'aznachiligi.

Shaxsiy h/v  
470010860262877031101179001  
STIR 200637499.

Tahririyatga kelgan qo'l-  
yozma va suratlar egasiga  
qaytarilmaydi.

Nashrimizdan ko'chirib bosil-  
ganda manba ko'rsatilishi shart.  
Gazeta tahririyat kompyuter  
markazida terildi va sahifalandi.

«Kolorpak» MCHJ  
bosmaxonasida chop etildi.  
Korxon manzili: 100206  
Yunusobod tumani,  
Yangishahar ko'chasi 1<sup>A</sup>-uy.

Gazeta O'zbekiston Respublikasi  
Prezidenti Administratsiyasi  
huzuridagi Axborot va ommaviy  
kommunikatsiyalar agentligi  
tomonidan 2020-yil 13-yanvarda  
0120-raqam bilan ro'yxatga  
olingan.

Buyurtma №4588.

Bosilish – ofset usulida.  
Bichimi – A3. Hajmi – 6 bosma  
taboq. 45785 nusxada chop etildi.

Obuna raqamlari:

Yakka tartibda – 180.  
Tashkilotlar uchun – 366.  
Bosishga topshirish vaqti – 22.00.  
Bosishga topshirildi – 21.00.  
Sotuvda kelishilgan narxda.

### MANZILIMIZ:

100070, Toshkent shahri,  
Shota Rustaveli 1-berk  
ko'chasi 9-uy.